

M U N D A R I J A

Kirish.....3

I BOB. MILLIY – MA’NAVIY TIKLANISHNI TA’MINLASHDA MILLIY ONGDAGI O’ZGARISHLAR MASALASI

1.1. Millat sha’nini yuksaltirishda yetuk va komil shaxslarning roli.....8

1.2. Milliy uyg‘onish va uning millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga
ta’siri.....18

1.3. Milliy va diniy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi 27

II BOB. MILLIY – MA’NAVIY TIKLANISHNI TA’MINLASHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O’RNI.

2.1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi va umuminsoniy qadriyatlarning
ustunligi..... 32

2.2. O‘zbekistonning umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishi va uning jahon
hamjamiyati tomonidan tan olinishi..... 41

Xulosa.....51

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati54

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston o'z istiqloliga erishganidan so'ng jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor berish mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi. Tariximizning ko'p asrlik saboqlariga, jamiyat oldida ko'ndalang turgan yangi vazifalarni hal etishga oqilona yondashildi. Milliy tiklanish jarayonlari jamiyat hayotida ro'y bergan ma'naviy o'zgarishlarning asosidir. Milliy tiklanish jarayonlari ham shaxsning, xalqning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq holda tushuniladi. Milliy o'zligini, o'z manfaatlarini, o'z mamlakati taraqqiyoti istiqbolini xolisona anglagan inson va xalqgina keng rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'la olishini tarix saboqlari har doim isbotlab kelgan.

Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqining ham madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharqning ma'naviy o'choqlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, biz yashab turgan hudud g'oyat xilma-xil diniy e'tiqodlar, dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan mintaqa hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston hududi nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan¹.

Bundan tashqari, Prezident I. A. Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli kitobida keltirilgan mana bu oqilona fikrlar ham tadqiq etilayotgan muammoning nazariy jihatdan ahamiyatga egaligi bilan ham xarakterlidir: "Men shuni aytishim kerakki, bizga zarba bo'lib tushgan eng og'ir tanglik iqtisodiy tanglik emas, ma'naviy tanglikdir. Asrlar mobaynida qaror topgan

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. Танланган асарлар. Т. 7. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б.132.

axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni g'oyaviy qarashlarga qurbon qilish oqibatlarini bartaraf etish iqtisodiyotni tartibga keltirishdan ko'ra ancha mashaqqatli bo'ladi"².

O'zlikni anglash, eng avvalo, o'tmishni o'rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat, o'zini anglayotgan har bir shaxs qanday oilada dunyoga kelgani, o'z ajdodlari kimlar bo'lgani, ota-bobolari nimalar bilan shug'ullanib, qanday umr kechirganliklarini bilib, anglab olishga intiladi. Ularning fazilatleri, meros va qadriyatlari bilan faxrlanib yashaydi. O'z naslu nasabini bilish kishining bu hayotda omonat yoki tasodifiy emasligini tushunishga imkon beradi. Shu bilan birga atrof-muhit, uni o'rab turgan olam haqida o'ylashga undaydi. Olamni anglash hissi – insonni o'zligini anglashga, olam va odam haqida o'ylashga da'vat etuvchi beqiyos qudrat hisoblanadi. Bunday ma'naviy-ruhiy ehtiyoj esa komillik va etuklikka intilish hissini uyg'otadi. Ana shu ichki tuyg'u insonning o'z o'tmishiga, ajdodlariga, ular merosi va qadriyatlariga qiziqish bilan qarashini taqozo etadi.³

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti o'z-o'zini anglash, eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma'naviy voqelik, sha'n, qadr-qimmat, obro'-e'tibor, or-nomus orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "O'zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab yetishni, shundan kelib chiqib, o'zimizga xos va mos jamiyat barpo etishni tushunaman"⁴.

Xotira – o'tganlarni eslatib turadi, o'zlikni anglatadi. Qadr – insonni ulug'laydi, jamiyatni bezaydi.⁵

Biron bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida milliy ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar davomida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan.

² Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 263.

³ Исоков Б. Жамият таракқиёти асоси. Наманган, 2007. –Б.4.

⁴ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. –Toshkent:1999. –B. 89.

⁵ Karimov I.A. O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash – bizning farzandlik burchimizdir // O'zbekiston ovozi. 2015 yil, 10-may.

Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tayziqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z milliy, ma'anaviy, tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga hos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

O'zbekistonda milliy tiklanish, milliy o'zlikni anglash, jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy asoslarini yaratish jarayonlarini o'rganish mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Xalqimizning milliy-diniy qadriyatlarini o'rganish va ularni ijodiy o'zlashtirish – bu o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy iftixor tuyg'usini, milliy sha'n va or-nomus qadriyatlarini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy kamolotga intilish mamlaktimizda ko'plab tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilgan dolzarb mavzulardan biri bo'lgan. O'tgan davr mobaynida ushbu muhim mavzu turli olimlar va mutaxassislar tomonidan turli darajada o'rganilgan va bu sohada ma'lum natijalarga erishilgan. Mavzu rejasi va tadqiqot uchun joiz bo'lgan metodologik asoslardan kelib chiqqan holda bitiruv malakviy ishi mavzusiga taalluqli bo'lgan quyidagi adabiyotlar batafsil o'rganildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy sohadagi islohotlar va ularning natijalari o'rganishga S.Otamurodov⁶, S.Husanov, J.Ramatov⁷, E.Xudoyberdiyev⁸, M. Imomnazarov, M.Lafasov, O'.Yusupov, K.Nomozovalar⁹ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari va asarlarida ifoda etiladi. Bu asarlarda va tadqiqotlarda O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy hayoti tarixi masalalari, respublikada siyosiy tizimining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, madaniy qurilishda, milliy kadrlarni tayyorlash, mustaqil O'zbekiston

⁶ Otamurodov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2003.

⁷ Otamurodov S., Husanov S., Ramatov J., Ma'naviyat asoslari. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.

⁸ Xudoyberdiyev E. Ma'naviyatning tarkibiy qismlari, ularning o'zaro munosabatlari va rivojlanish xususiyatlari, – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.

⁹ Лафасов М., Юсупов Ў., Номозова К. Миллий –маънавий тикланиш. Ўқув қўлланма. –Тошкент: 2008. – Б.185.

taraqqiyotining g'oyaviy asoslari kabi manbalar asosida o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi.

Bitiruv malakaviy ishinining maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusida masalaning ikkinchi tomoniga, ya'ni milliy tiklanish, milliy o'zlikni anglash va shu bilan birga bugungi tahlikali dunyoda yadro polegonlaridan mafkuraviy palegonlar kuchaygan bir paytda milliy o'zlikni asrash, milliy tiklanish kabi dolzarb masalalar ustida bazi ilmiy fikr mulohazalar yuritish maqsad qilib olingan.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda quyidagilar ustivor vazifalar sifatida belgilab olindi:

- O'zbekistonda ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanish jarayonlarini tahlil qilish;
- O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning mohiyatini tushuntirish;
- Milliy – ma'naviy qadriyatlarning inson va uning hayotidagidagi tutgan o'rnini yoritib berish
- O'zbekistonda milliy o'zlikni anglash va milliy ongni rivojlantirish masalalarini o'rganish;
- Milliy–ma'naviy qadriyatlarning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga ko'rsatayotgan ta'sirini tahlil etgan holda uning mohiyatini ochib berish;
- Milliy – ma'naviy qadriyatlarning tiklash borasida amalga oshirilayotgan turli tadbirlarni tahlil etish;
- tadqiqot natijalariga ko'ra, yakuniy ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti. Ushbu bitiruv malakaviy ishining tadqiqot obyekti bo'lib, milliy – ma'naviy tiklanishni ta'minlashda milliy ong, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini masalasi olinmoqda. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikni qo'lga kiritilishi va undan keyingi davrlarda Vatanimizda amalga oshirilayotgan madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda olib borilayotgan islohotlarni o'rganish va tahlil qilish bitiruv malakaviy ishining predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston tarixi fanida haqqoniylik, xolislik, tarixiylik kabi jahon tarixshunosligi an'alariga asoslangan uslubiy qarashlar, yondashuvlar qaror topdi. Masalani o'rganish jarayonida tadqiqotchi tomonidan tarixiylik tamoyiliga, yangicha fikrlash, haqqoniy ilmiy tahlilga asoslanildi.

Tadqiqot jarayonida mavzuga umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol mafkurasidan kelib chiqqan holda yondashildi. Tadqiqotning metodologik asosini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asrlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g'oya va fikrlar nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Mazkur muammo mustaqillik ruhi bilan sug'orilgan ustuvor uslubiy va ilmiy-nazariy yo'l-yo'riqlardan, uslubiy asoslardan kelib chiqqan holda tadqiq etildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishi quyidagi jihatlar bilan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi:

Milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarni qayta tiklash jarayoni bevosita o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy merosini, uning milliy an'ana va urf-odatlarini o'z ichiga olgan ma'naviy hayoti tarixini chuqur o'rganish bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy merosi tizimida o'ziga xos o'rinni egallovchi urf-odat va marosimlar ayni paytda insoniyat madaniyatining muhim komponentlaridan biridir.

Bitiruv malakaviy ishi materiallaridan mustaqillik yillarida milliy tiklanish va milliy o'zlikni anglash jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar, ma'naviyat asoslari, qadriyatshunoslik, madaniyatshunoslik fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda hamda o'zbek xalqi ma'naviyatiga, qadriyatlariga, urf-odatlariga, an'alariga oid veb sahifalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 55 betni tashkil etadi.

I BOB. MILLIY – MA’NAVIY TIKLANISHNI TA’MINLASHDA MILLIY ONGDAGI O’ZGARISHLAR MASALASI

1.1. Millat sha’nini yuksaltirishda etuk va komil shaxslarning roli

Ma’naviy kamolot jarayoni turli o‘lchamlarda amalga oshadi. Biri alohida shaxs umri davomida, ikkinchisi – millatning tarixiy taraqqiyotida, yana mintaqa miqyosida, umumbashariy miqyosda va hokazo. Bu jarayonlar, albatta, bir-biri bilan uzviy bog‘lanishda bo‘ladi. Masalan, yakka shaxs ma’naviyatining shakllanishi umummilliy va umumbashariy ma’naviy taraqqiyot darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lsa, millatning ma’naviy takomili uni tashkil etuvchi shaxslar ma’naviy dunyosidagi o‘zgarishlar tufayli yuz beradi.

Hozirgi kundagi muhim muammolardan biri – milliy tiklanish g‘oyasining strategik va taktik vazifalari masalasidir. Ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda milliy tiklanish konsepsiyasi milliy mafkuraning bosh g‘oyasi bilan uyg‘undir. Haqiqatdan ham «O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g‘oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma’no-mazmunini belgilaydi. Har bir inson, uchun muqaddas bo‘lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi».

Mamlakatimiz milliy tiklanish konsepsiyasida ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e'tirof etilishi, madaniyatning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohadagi barcha muammolarni hal etishdagi roli va o‘rnining ortib borishi, milliy madaniyatning milliy g‘oya va mafkura bilan uyg‘unligi kabi masalalar istiqlool davri adabiy-badiiy, ma'naviy-madaniy hayotida sifat jihatdan yangilanish, poklanish va barqarorlashuvning boshlanganligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda Prezident I.Karimovning «Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir»¹⁰, deb ta'kidlashi bu boradagi islohotlarning to'g'riligiga va davomiyligiga ishoradir.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, "o'z", "o'zlik", "o'zimizniki" singari iboralar paydo bo'la bordi. Bu oddiy bo'lib ko'ringan so'zlar o'z ichida qanchalar chuqur ma'noga ega ekanligini har kim ham anglay olmaydi. Ajdodlarimiz o'zligiga yetishish yo'lida qanchadan-qancha kurashlar olib borishdi, qancha-qancha qurbonliklar qilishdi. Nihoyat, xalqimiz mustaqil bo'lgach, milliy o'zlikni qayta tiklash uchun yurtboshimiz I.A.Karimov boshchiligida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy ildizlariga qaytishdan iborat tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqimiz siyosiy mustaqillikka erishgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi¹¹.

Milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash, milliy ongni yuksaltirish yagona millat ma'naviy dunyosining qo'sh qanotidir. Qush ikki qanoti bilan baland-balandlarga uchgani kabi milliy sha'nini o'z sha'nidek his etadi va uni himoya qiladi. Mabodo milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash bo'lmasa, millat sha'ni tushib ketadi.

Milliy o'zlikni anglash va milliy ong yuksaltirish real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy asoslarda shaxs ongida qaror topadi va u iroda bilan bog'lanib, amaliy harakat tusiga kiradi. Chunonchi, milliy o'zligini anglagan shaxslar hozirgi tarixiy sharoitda mamlakat xayotining barcha sohalaridagi salohiyatini ko'tarish zaruriyatini anglab etadi.

O'z millatining haqiqiy tarixini anglagan, tarixiy xotiraga ega bo'lgan kishilarda milliy o'zlikni anglash va millat sha'nini himoya qilish mayli kuchli

¹⁰ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т.7. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. –Б. 135.

¹¹ Раҳмонов Р., Ғофуров З., Мустақиллик ва миллий ўзликни англашнинг тикланиши. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 41.

bo'ladi. Darhaqiqat, Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganidek, tarix - millatning tarbiyachisidir, o'zlikni anglash - tarixni bilishdan boshlanadi, isbot talab qilmaydigan bu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi lozim. Alohida inson xotirasida o'zining hayotida nimalar qilganligi, uning aql-zakovati va irodasi nimalarga sarflanganligi qay darajada o'rnashib qolsa, millat uchun ham u tomondan amalga oshirilgan narsalar shu darajada yaqin va qimmatlidir.¹²

Mustaqillik yillarida bu yo'lda davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan juda ko'p tadbirlar amalga oshirilib, sobiq sho'rolar sharoitida milliy ongni xiralashtirish qabohatlarini tugatish choralari ko'rildi. Millatlar mavjud ekan milliy ong ham mavjud bo'laveradi. Milliy ongni yuksaltirishga e'tibor bermagan millatning o'zi yo'q. Milliy ong millat bilan chambarchas bog'liqligi uchun ham u millat ravnaqi bilan barobar taraqqiy etib boraveradi.

Milliy ong shunday g'oyalar, fikrlar tizimiki, u har bir millatning tarixi, taqdiri va kelajagi bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar, maqsadlarni ifodalash bilan birga, millat vakillari faoliyatini maqsad, yo'nalishlar tomon boshqarib turadi¹³.

Milliy ong yuqori bo'lib, u taraqqiyot jarayonida faollashib borgan taqdirdagina o'z natijasini beradi. Milliy ong milliy manfaatlar sifatida, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, o'zga millatlar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida ham shakllanib, rivojlanib boradi.

Mana shu jarayondagina millatga xos bo'lgan xususiyatlar shakllanadi va bunday xususiyatlar millatni boshqa millatlardan ajratib turadi.

Milliy ongning ta'sirida shakllangan bunday xususiyatlar milliy manfaatlar va maqsadlarni shakllanishida etakchi omil vazifasini bajaradi.

Qaramlik yillarida ko'plab millatlarning milliy ongini yuksaltirmaslikka katta e'tibor qaratilgan edi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng milliy ongni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

¹² Туленов Ж., Ғофуров З., Мустақиллик ва миллий тикланиш. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996.-Б.34.

¹³ Лафасов М., Юсупов Ў., Номозова К. Миллий –маънавий тикланиш. Ўқув қўлланма. –Тошкент: 2008. – Б.185.

Jumladan, o'zbek tiliga davlat maqomi berildi, tariximizga holis munosabat bildirish qaror toptirilmoqda, juda ko'p tarixiy obidalar qayta ta'mirlanib, yangilari bunyod etilmoqda, milliy qadriyatlar tiklanmoqda.

Milliy o'zlikni anglash o'z ichki ziddiyatlariga ega. Mansabparastlik, tarafkashlik, guruhbozlik, mahalliychilik, millatchilik-bularning hammasi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotimiz, mustaqilligimiz, millatlararo totuvlik uchun nihoyatda xatarlidir. Bular milliy ongini, siyosiy madaniyati, milliy g'ururi zaif bo'lgan kishilarga xos xususiyatdir. Do'stlik, hamjixatlik, milliy hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, dardiga darmon bo'lish-bular bir xil xalq va millat kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizidir. Milliy axillik bor joyda tinchlik, barqarorlik, osoishtalik bo'ladi.

Maxalliychilik milliy birlik va birdamlikka putur etkazdi, millatni bo'lib, parchalab, milliy nizolarni kuchaytirib yuboradi. Milliy birlikka tahdid solayotgan banday xavf-xatarlar bartaraf etilmas ekan, mustaqilligimizni tinch hayotimizni ko'ra olmayotgan kimsalar ulardan o'z maqsadlari yo'lida ustaomonlik bilan foydalanishlari mumkin.

Millatimizni, xalqimizni birlashtirishga xalaqit beradigan, buyuk kelajakka erishish yo'lida to'g'anoq bo'ladigan har qanday guruhbozlik, maxalliychilik, millatchilik singari illatlardan xolos bo'lishimiz kerak. Bu ozod va obod Vatan qurish, millatlararo totuvlikni ta'minlash yo'lidagi asosiy talablardan biridir.

Milliy axillik bor joyda har qanday o'z-o'zini anglash real hayot vaziyatlariga muvofiq tarzda muayyan harakat va faoliyat yo'nalishini tanlash asosida boradi. Bunda shaxs dunyoqarashi, hayot ma'nosini to'g'ri anglashi asosida maqsad-muddaolar belgilashga ko'p narsa bog'liq bo'ladi. Turli yo'llardan qay birini tanlash, mavjud imkoniyatlarni anglab, uni voqe'likka aylantirish yo'llari, vositalarini belgilash bevosita shaxslarning hayot ma'nosini to'g'ri anglashlari bilan uzviy bog'lanib ketadi. Ilmiy salohiyati kuchli, falsafiy mushohada qilish quvvatiga ega shaxslar harakat va faoliyat yo'nalishini to'g'ri belgilab, ularni milliy qadriyatlar majmuasi bilan bog'lay oladilar.

Milliy g'urur, milliy faxr, millat sha'nini yuksaltirishda har tomonlama etuk bo'lgan komil insonlarning, etuk shaxslarning roli katta bo'lib kelgan. Etuk va komil insonlar millatarvarlik, vatanparvarlik, fidoiylilik fazilatlarini ixtiyoriy holda egallaydilar va ulardan ongli holda foydalana oladilar.

O'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, milliy manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, millati uchun jonini fido qilishga tayyor turmagan kishilarda milliy g'urur ham, millati bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi.

Etuk, komil inson sifatida voyaga etib borayotgan har bir shaxsda millatparvarlik va Vatanparvarlik bo'lishi shartdir. Turon-Turkiston O'zbekiston qadim madaniyat beshiklaridan biri ekanligini, hozirgi zamonaviy fan va texnikaning poydevori shu yerda yaratilganligini anglamog'imiz va anglatmog'imiz zarur. «Biz kim, mulki Turon, amiri Turkistonmiz, biz kim millatlarning eng qadimi va ulug'i - turkning bosh bo'g'inimiz» - Sohibqiron Amir Temurning buyukligi zahirida ana shunday milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira yotgan bo'lsa ajab emas. Zero, milliy his-tuyg'u va mustahkam e'tiqod - insoniy va milliy kamolotning ikki qanotidir. To'maris momomiz va Alp Erto'nga bobomizdan to Abdulla Qodiriy va Ozod Sharafiddinogacha yengilmas kuch-qudrat ato etgan narsa milliy his-tuyg'u va e'tiqodiy ruhdur, desak xato qilmasmiz.

Mustaqillik voyaga etib borayotgan hozirgi yosh avlod zimmasiga g'oyatda buyuk, muqaddas vazifani yukladi. Bu Vatanni Vatan qilish, uning dovrug'ini olamga yoyish, kuchiga-kuch, shuhratiga-shuxrat qo'shishdir.

Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni bo'lishi, millatlarning kuchv g'ayratlari, aql-idroklari, aqliy, madaniy-ma'naviy kamolotlariga bog'liqdir. Yoshlar Vatanimizning, millatimizning kelajagidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2007 yil Konstitutsiyamizning qabul qilinganligini 15 yilligi munosabati bilan qilgan ma'ruzasida yoshlarga ishonch bildirib shunday deydi. «Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, yoshlarimiz bugungi va

ertangi kunimizni hal qiluvchi kuchidir» desak, o'ylaymanki, bu olib borayotgan siyosatimiz va maqsadlarimizga javob beradigan da'vat bo'ladi».

Prezidentimiz Vatan manfaatini, umummilliy manfaatlarini hamma narsalardan ustun qo'yadigan yoshlarga katta e'tibor berayotganligi, ularga umid va ishonch bilan qarayotganligi bejiz emas, albatta.

Komillikka intilib borayotgan har bir inson millatlararo totuvlik tinchlik va barqarorlik uchun kafolat bo'lib xizmat qilishini anglab etadi.

Yoshlar axloqining yarmidan ko'pini tashkil etgan ko'p millatli O'zbekistonda ularning ruhiyatida milliy g'urur va milliy iftixor fazilatlari zarurdir. Komillikning asosiy jihatlaridan biri shuki u Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir.

Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insoning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, insonparvarlik g'oyalariga munosabatda, hamda ularga asoslangan amaliy faoliyada namoyon bo'ladi. Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr, tafakkuri va amaliy faoliyat erkinligini anglashdir.

Jamiyatning har bir yosh a'zosi millatlararo totuvlik, hamjihatlik va birdamlik umumbashariy qadriyat ekanligini anglashi lozim. Birdamlik va totuvlik turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir.

Insoniylik fazilatlari, ezgulik g'oyalari bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mexnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar, ayniqsa yoshlar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirish va mustahkamlashning asoslaridandir¹⁴.

Mustaqillik har bir millat yoshlarining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoitlar yaratib berdi va ularni millatlararo totuvlikni ta'minlab berish yo'liga safarbar etmoqda.

¹⁴ Лафасов М., Юсупов Ў., Номозова К. Миллий —маънавий тикланиш. Ўқув қўлланма. —Тошкент: 2008. — Б.187.

Jamiyatni yosh a'zolarini o'zaro hamjixatlik ruhida tarbiyalashda, boshqa millat vakillariga hurmatda bo'la olishlikni ta'minlab berishda mafkuraviy tarbiyaning, mafkuraviy profilaktika ishlarining ahamiyati kattadir.

Millatlararo totuvlikni ta'minlab berishga o'z hissasini qo'shadigan komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazishga xizmat qiladigan mafkuraviy tarbiya inson dunyoqarashini shakllantirishga ularni muayan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar, bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayondir.

Komil inson tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi millatchilik, tajavuzkor millatchilik, shovinizm singari yovuz buzg'unchi g'oyalar mavjud bo'lgan sharoitida mafkuraviy tarbiyani kuchaytirish tarixiy zaruriyatga aylanadi.

Bugungi kun O'zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri-xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi sayi-harakatlarini kuchaytirish, millatidan qa'tiy nazar barcha jamiyat a'zilarini mana shu maqsad sari yo'lida safvarbar etishdir.

Komil insonlarni voyaga etkazishning ko'plab omillari va vositalari mavjud bo'lib, ulardan unumli foydalanish samara bera oladi.

Komillik barcha insoniy fazilatlarning uyg'unligini ifodalaydi. Voyaga etib kelayotgan yoshlarni ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikr va oqilona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili birday bo'lishi, millat va Vatan manfaatlarini barcha narsalardan ustun qo'ya bilishlik komillikning mezonlari hisoblanadi.

Milliy tarbiya asrlar mobaynida Vatan, millat ravnaqi yo'lida faol bo'lgan kishilarni voyaga etkazib kelgan. Mamlakatimizning mustamlakaga aylantirilishi milliy tarbiyaga bo'lgan munosabatni o'zgartirib yubordi.

Milliy tarbiyani kuchaytirishga bo'lgan har qanday harakatlar millatchilikni kuchaytirishga bo'lgan urinish deb baholanar edi. Ajdod-larimiz tomonidan asrlar mobaynida foydalanib kelingan milliy tarbiya kishilarda boshqa millat vakillariga nisbatan hamkorlik, do'stona muno-sabatlar kuchaytirish, yaxshi va yomon kunlarda yordam qo'lini cho'zish singari fazilatlarni shakllantirib kelgan. Tariximizda millatparvarlik harakati bilan mashhur bo'lgan jadidchilik harakati

mustamlakachilar olib borayotgan milliy siyosatdan qanday maqsadlar koʻzlanayotganini anglab etdilar.

Jadidlar jahon kezib, qiyoslab, oʻzbekni zamonning ilgʻor millatiga aylantirish uchun milliy tarbiyaviy ishga kirishgan edilar. Mustamlakachilar olib boryotgan siyosat oqibatida xabarsizlik, xavf-salasizlik, kelajak uchun kurashmaslik, tor dunyoqarash umummilliy darajada nomoyon boʻlganligi uchun jadidlar millatni bunday illatlardan maʼrifiy yoʻl bilan tozalash yoʻlini tanladilar.

Buyuk jadid bobolrimizdan Abdulla Avloniy bu haqida gapirib «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir» deb aytib oʻtadi. Ular yoshlarni har tomonlama etuk kishilar sifatida vayaga etkazish uchun qator chora tadbirlarni, vazifalarni belgilab, qisman boʻlsada amalga oshirdilar. Sovet tuzumi millatparvarlarning bu saʼi-harakatlariga chek qoʻydi. Oʻsha davrlarda Kommunistik tarbiyaga katta eʼtibor berilib sovet xarakterini shakllantirishga kirishilgan edi va u XX asr oxirlariga qadar kuchaytirib borildi. Milliy oʻzlikni, milliy davlatchilikni, milliy kelajakni orzu qilish, unga intilish siyosiy xato deb hisoblanar edi.

Yetuk va komil insonlar millatarvarlik, vatanparvarlik, fidoiylilik fazilatlarini ixtiyoriy holda egallaydilar va ulardan ongli holda foydalana oladilar¹⁵.

Oʻz xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, milliy manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, millati uchun jonini fido qilishga tayyor turmagan kishilarda milliy gʻurur ham, millati bilan fahrlanish ham, millatparvarlik ham boʻlmaydi. Yetuk, komil inson sifatida voyaga yetib borayotgan har bir shaxsda millatparvarlik va Vatanparvarlik boʻlishi shartdir. Mustaqillik voyaga yetib borayotgan hozirgi yosh avlod zimmasiga gʻoyatda buyuk, muqaddas vazifani yukladi. Bu Vatanni Vatan qilish, uning dovruqʻini olamga yoyish, kuchiga-kuch, shuhratiga-shuxrat qoʻshishdir.

Mustaqillik yillarida milliy munosabatlarni tashkil etishdagi olib borilayotgan ijobiy ishlar har bir millat vakili uchun oʻz millat shaʼn-shavkatini oshirish, uning shon-shuhratini koʻtarish imkoniyatlarini kengaytirib bermoqda.

¹⁵ Қуръонов М. Ўзбек характери ва миллий ғоя. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998.-Б. 74.

O'z millatining sha'n-shavkatini o'ylamaydigan, uni yuksaltirishni istamagan, uning uchun harakat qilmaydigan millat bo'lmasa kerak.

Sha'n-shavkat tashqi ta'sirlar natijasida hosil bo'ladigan ichki his-tuyg'u va ruhning parvozidir. Bu his-tuyg'uning rivojlanishi va milliy ruhning parvozi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, balki tarixiy xotiradan yaxshi xabardor individlar va shaxslarda u kuchli ravishda namoyon bo'ladi. Uni o'rganish, mahsus ilmiy-tadqiqot ob'ektiga aylantirish galdagi vazifadir. Chunki millat sha'ni masalasi hali-hozir jiddiy ilmiy muloqotga kirganicha yo'q. Bu falsafiy tushunchani O'zbekiston fuqarolari to'g'ri anglab olishlari hamda ilmiy talqin etishlari uchun milliy mafkuraning barcha vositalaridan samarali foydalanish lozim bo'ladi. Ayniqsa, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida millat sha'ni nima, uni kimlar himoya qila oladi, degan savollarga aniq-ravshan javoblar berish, shu asosda o'z millati sha'ni-shavkati uchun fidoiy insonlar shaxsini shakllantirish galdagi vazifadir.

Millat sha'nini ko'tarishda bugungi kunda ulg'ayib, voyaga yetib borayotgan yoshlarni alohida o'z o'rni bordir. O'zbekistonning kelajagi bugungi kun yoshlarining qo'lidadir. O'zbekiston yoshlari turli sohalarda erishayotgan yutuqlari bilan yurtimizni dunyoga tanitmoqdalar va millatimiz sha'nini ulug'lashga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Yurtimizni ko'plab iqtidorli yoshlari dunyoning taniqli universitetlarida taxsil olib o'z qobiliyatlarini namoyish etib kelmoqdalar.

“Yurtboshimiz yoshlarimiz erishayotgan yutuqlardan, millat sha'nini ko'tarishga qo'shayotgan hissalaridan fahrlanib, sizlarni o'z farzandlarimdek ko'raman, sizlar erishayotgan yutuqlar bilan fahrlanaman, degan gaplarni doimo ta'kidlab kelmoqdalar”¹⁶.

Prezident I.Karimov yoshlarga ishonch bildirib, shunday deydi: ”Barchamizga ma'lumki, har qaysi davlat, har qaysi millat avvalo o'z farzandlari qiyofasida, unib o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarni namoyon etadigan, uning azaliy orzu intilishlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi”. Ko'ryapmizki, keyingi yillarda yoshlar masalasi davlat

¹⁶ Мусурмонова О., Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. –Тошкент: 1996. –Б. 87.

ahamiyatidagi masalalardan birini tashkil etmoqda. Biz yoshlar mana shu bizlarga berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalarib, jamiyatning oldingi saflaridan o'rin olishimiz lozim deb o'ylaymiz. Buning uchun biz yoshlar o'zimizning yaxshi o'qishimiz bilan vatanga bo'lgan mehr-muhabbatimizni bildirishimiz, burch va masuliyatlarni vaqtida bajarishimiz lozim.

1.2. Milliy uygʻonish va uning millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga taʼsiri

Milliy–maʼnaviy tiklanish va millatlararo munosabatlar doimo jamiyat hayoti taraqqiyotida va inson kamolotida katta rol oʻynab kelgan.

Bugungi kunda butun dunyodagi 200 dan ziyod boʻlgan mamlakatlarda minglab millat va elat vakillari istiqomat qilib, ular turli xil tilda gaplashadilar va oʻzlariga xos boʻlgan urf-odat va anʼanalarga egadirlar. Har bir millatning oʻziga xos boʻlgan milliy mentaliteti mavjud boʻlib, bu mintalitet asrlar davomida shakllanib kelgan. Milliy va millatlararo munosabatlar jamiyat taraqqiyoti davomida uning xayoti va rivojiga boʻlgan oʻz taʼsirini kuchaytirib bordi.

Milliy jarayonlarning asosiy xarakterli tomoni shundaki, insonning aql-zakovati yuksalib borgan sari ushbu munosabatlarning ahamiyati ortib bormoqda. Insoniyat tarixi shuni koʻrsatdiki, jahondagi mavjud boʻlgan birorta millat yoki elat, ular kam sonli boʻlgan taqdirda ham, ixtiyoriy ravishda boshqa millatlar bilan qoʻshilib ketmagan, har bir millatga xos boʻlgan xususiyatlar rivojlanib borgan sari boshqa millatlar bilan munosabatlarni takomillashtirib borgan. Milliy va irqiy birlik doimo insoniyat jamiyatining ravnaqiga katta taʼsir koʻrsatib kelgan.

Mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki davrlaridan boshlab mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohatlar milliy uygʻonish, tiklanish, poklanish va millatlararo totuvlikni taʼminlash yoʻlidagi harakatlardir. Milliy tiklanish-mustamlakachilik olib borgan milliy siyosatda yoʻl qoʻyilgan xatoliklar oqibatida qolgan merosdan milatlararo totuvlikni taʼminlash yoʻlida xizmat qiladigan imkoniyatlarni mustahkamlash imkoniyatlarini yaratish jarayonidir.

Bugungi kunda mavjud boʻlgan barcha etnik guruhlar, elatlar, millatlarning bir-birlari bilan munosabatlari yaxshilanib bormoqda. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va maʼnaviy hayotida katta oʻzgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu oʻzgarishlarda yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat vakillari faol ishtirok etib kelmoqda. Mustaqillikni birinchi kunlaridan boshlaboq barcha millat vakillarining ongi va qalbiga shu aziz

Vatan barchamizniki degan tamoyilni singdirish orqali ularni bunyodkorlik va yaratuvchilik ishiga safarbar etish davlatimiz olib borayotgan siyosatda alohida o‘rin tutdi. Bugungi kunda Respublikamizda milliy tiklanish siyosati orqali, sovet tuzumi davrida shakllangan milliy munosabatlar borasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etishga ham katta e’tibor berilmoqda.

Milliy tiklanish siyosatidan ko‘zlangan maqsad barcha millatlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni tiklash va hayotga tadbqiq etishdir.

Milliy tiklanish milliy uyg‘onish, poklanish bilan hamohang bo‘lgandagina yaxshi samara beradi, millatning ma’naviy kamoloti uchun keng ufqlar ochadi, milliy ong, milliy burch va ma’suliyat tuyg‘usini ta’sirini ortishiga imkon yaratadi¹⁷.

Milliy uyg‘onish – o‘zlikni anglash, istiqlool sari hamjihatlik, komil ishonch bilan borishdir. Milliy uyg‘onish xalqning, mamlakat tarixi, hozirgi kun va kelajagini yaxlit, bir-biri bilan borishdir. Milliy uyg‘o-nish xalqning, mamlakat tariixi, hozirgi kun va kelajagini yaxlit, bir-biri bilan bog‘liq holda anglashdir. Milliy uyg‘onish ko‘pincha bir mamlakatning, millatning ma’naviy hayoti doirasida bo‘ladi. Shu bilan birga, umumjahon sivilizatsiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy uyg‘onishga, poklanishga intilish zaruriyati biror millat uzoq vaqt davomida boshqa xalqlarning taraqqiyot darajasidan iqtisodiy, siyosiy sabablar taqozosi bilan orqada qolganda, mafkuraviy zo‘ravonlik asosida qurilgan siyosiy e’tiqodlar jamiyat hayotida chuqur tomir otganda, mamlakatlar, xalqlar mustamlakachilik asoratiga tushib qolgan sharoitlarda yuzaga keladi. Milliy uyg‘onish milliy manfaatlarni chuqur va to‘g‘ri anglash asosida umumjahon ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyot darajasiga yaqinlashish, komil insonni tarbiyalash, millatlararo totuvlikni ta’minlab, unga hizmat qiladigan g‘oyalar, mafkuraviy kurashlarni yaratish demakdir.

¹⁷Nazarov Q. va boshqalar Mustakillik izohli ilmiy – ommabop lug‘at. –Toshkent: Sharq, 2006. –B. 17.

Milliy uygʻonish barcha davrlarda ham jamiyat tarixining asosiy omillaridan biri boʻlib kelgan va u millat manfaatlari va qadr qimmatini anglashdan, ularni himoya qilish uchun kurashdan boshlanadi.

Milliy uygʻonish Oʻzbekiston mustaqilligini mustahkamlashning muhim shartidir. Millat, fuqarolar chinakam ozodligining totli mevasi taʼmini bilmas ekan, uning qadriga etmaydi, milliy tiklanish va uygʻonishning ahamiyatini anglatmaydi. Millat manfaatlariga, mustaqil davlat istiqbollari loqaydlik bilan qarash, unga befarq boʻlish siyosiy kaltabinlik va manqurtlikdir. Milliy uygʻonish, poklanish zaruratini anglamagan xalq oʻz Vatanini taqdiriga ham befarq boʻladi.

Milliy uygʻonish jarayoning tarkibiy qismlaridan biri fuqarolik maʼsuliyati va burch tuygʻusini shakllanishidir. Milliy burch va maʼsuliyat xalq va mamlakat, mustaqillik manfaatlarini chuqur anglash, ularni amalga oshirish yoʻlida fidokorona mehnat qilishdir. Ular milliy uygʻonishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Koʻpmillatli mamlakatimizda milliy burch va maʼsuliyat bilan bogʻliq ravishda namoyon boʻladi. Fuqarolik maʼsuliyati oʻz mohiyati va ahamiyatiga koʻra milliy maʼsuliya dan farq qiladi. Mamlakatda yashayotgan fuqarolar turli millatlarga mansub boʻlsalar ham oʻlarni mushtarak maqsadlar birlashtiradi. Bu esa barcha millat vakillari umumiy maʼsuliyatini his qilib ishlashlarini taqazo etadi.

Fuqarolikni shakllanishi va rivojlanishi taʼminlash, millatlar oʻrtasidagi totuvlikni kuchaytirishi koʻp millatli mamlakatda roʻy berayotgan maʼnaviy uygʻonish poydevorini yanada mustahkamlaydi.

Bunday vaziyat va imkoniyat milliy munosabatlarda qonunlar va ijtimoiy adolat mezonlari ustuvor boʻlgan sharoitdagina yuzaga kelishi mumkin¹⁸.

Milliy maʼsuliyat va fuqarolik maʼsuliyatining birligi va barqaror boʻlib turishi tarixiy burilish davrlarida katta ijtimoiy siyosiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu asosda amalga oshayotgan milliy uygʻonish Oʻzbekistonda taraqqiyo, tinchlik, osoishtalik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni taʼmin-lashining asosiy shartlaridan hisoblanadi.

¹⁸ Қуръонов М. Ўзбек характери ва миллий ғоя. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998.-Б. 83.

O'zbekistonning ko'p asrlik tarixida milliy adolat yoki kamsitishlar tufayli kelib chiqqan qonli urushlar bo'lmagan. Bu esa fuqarolik ma'suliyati mamlakat aholisining barchasiga xos bo'lgan fazilat sifatida shakllanishiga olib kelgan. Bu an'analarga sodiq qolish, respublikamizda yashayotgan barcha xalqlarning manfaatlarini himoya qilish, tili, madaniyati, urf-odatlarini hurmat qilish taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida nihoyatda katta ahamiya kasb etmoqda.

O'zbek xalqi o'z tarixini xech bir davrida yonma-yon yashayotgan xalqlarga, boshqa millatlarga va dinlarga mansub bo'lgan kishilarga yomon ko'z, g'arazli niyat bilan qaragan emas. Bu ham O'zbekistonda millat va fuqaro burchi, ma'suliyati o'zaro chambarchas bog'liq ravishda shakllanib borishiga imkon beradi¹⁹.

Mustaqillik yillarida respublikamizda hech bir millatning manfaatlariga zid keladigan chora-tadbirlar ko'rilmadi. Respublikamizdagi millatlararo munosabatlarda vaziyatning barqaror bo'lib turishi ham shu siyosat bilan bog'liqdir. O'zbekiston raxbariyati olib borayotgan siyosatda milliy his-tuyg'ularning bu xususiyatlariga ham e'tibor berilmoqda. Bu esa adolatli milliy siyosatimizning yana bir belgisidir. Shu sababli xalqlar do'stligi, ahilligi va hamkorligini qadrlash bilan bog'liq uyg'onish, poklanish jarayoni respublikamizda yashayotgan turli millat-larning ma'naviy e'tiqodida ham ro'y bermoqda.

Bir mamlakatda yashar ekanmiz, uning taqdiri hammamizning taqdirimizdir. O'lkamiz tinch, yurtimiz boy bo'lsa, shu erda yashayotgan barcha xalqlar yaxshi yashaydi. O'zbekiston kishilarining milliy va diniy mansubligiga qaramay, yagona maqsad yo'lida shakllangan yangi ijtimoiy birlikdir. O'zbekiston xalqiga aksincha, bu birlik barcha xalqlarning o'ziga xos milliy jihatlarini ham tez taraqqiy etishiiga imkon beradi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda olib borilayotgan milliy siyosat o'zining mohiyati va yo'nalishi jihatidan ayrim mamlakatlarda olibborilayotgan siyosatdan farq qiladi. O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning Respublika

¹⁹ Лафасов М., Юсупов Ў., Номозова К. Миллий –маънавий тикланиш. Ўқув қўлланма. –Тошкент: 2008. – Б.190.

rahbariyati olibborayotgan siyosatni to'liq qo'llab-quvvatlashlari millat va fuqarolia burchi va ma'suliyatining uyg'unlashayotganidan dalolat beruvchi belgidir.

Milliy uyg'onish O'zbekistonda taraqqiyot, tinchlik, osoishtalik, ijtimoy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash asosiy shartlardan hisoblanadi²⁰.

O'z-o'zini va milliy o'zlikni anglash tanlab olgan yo'nalish ta'sirida ideallik parchalanadi. Bir tomondan milliy o'zlikni anglash darajasidagi shakllangan tasavvuri bo'yicha o'z millati va uning ma'naviy qadriyatlarini boshqa millat vakillaridan afzal deb biladi. Millat boshqa millatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa aloqalarda bo'lmay, rivojlana olmasligini, demak, ular o'zgalar qadriyatlarini ham hurmatlamay yashay olmasligini anglaydi. Bu milliy o'zlikni anglash rivojidadagi birinchi ziddiyatdir. Ikkinchi ziddiyat shundan iboratki, bir mamlakat ichida boshqa millatlarga mansub odamlar, ularning uyushmalari mavjud bo'lib, muayyan respublika, davlat nomi bilan atalgan va tub aholini tashkil etgan tub millat o'rtasidagi munosabatlarda paydo bo'ladigan ziddiyatlardir. Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan, barcha sohada ziddiyatlar bo'ladi va ular harakatlar manbai hisoblanadi. Muhimi, mavjud milliy ziddiyatlar o'zining qarama-qarshi tomonlariga og'ib ketishiga yo'l qo'ymaslikdir. O'zbekistonda tub millat hisoblangan o'zbeklar boshqa millatlar oldida juda katta ma'suliyatli ekanini doimo esda tutishlari shular bilan izohlanadi.

Milliy o'zlikni anglagan, uning sha'nini ulug'laydigan shaxslar buni yaxshi his etadilar va milliy zamindagi ziddiyatlar o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ib ketmasligi uchun kurashadilar va shunga erishadilar.

Milliy o'zlikni anglashdagi tavofutlar, milliy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni milliy davlat, jamiyatdagi siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, jamoat va nodavlat tashkilotlari, ma'naviyat va ma'rifat muassasalari, butun jamoatchilik kuchi bilan qadam-baqadam hal etib borish o'z-o'zini va milliy o'zlikni anglayotgan, uni chuqurlashtirayotgan individual va ijtimoiy ongning to'g'ri ijtimoiy yo'nalish olishi uchun kafolatdir.

²⁰ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. IX tom. –Toshkent: 2005. -B. 704.

“Milliy sha'n milliy g'urur, milliy iftihor his-tuyg'ulari bilan tutashib ketadi. O'zbekistonda tayyorlanadigan mahsulotlar jahon bozorida sevib xarid qilinishidan g'ururlanish, undan iftixorlanish his-tuyg'usiga ega bo'lgan kishilar yomon, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishdan or-nomus qiladilar”²¹. Bu bilan millatimiz sha'niga sha'n qo'shgan bo'ladilar. Har bir millatning vakili, qanday sohada bo'lmasin jahon miqiyosida katta yutuqqa erishsa, bu shu millat vakillaridan ular bilan fahrlanishi, mag'rurlanish hislarini hosil qiladi.

O'zbek millati vakillarining koinotga uchishi, millatimiz vakillarining sport sohasida erishayotgan yutuqlari, milliy madaniyatimizni dunyoga tanilib borishi millatimiz shon-shavkatini yanada oshiradi, jahonda shunday zakovatli millat bor ekani amalda nomoyon bo'ladi.

“Milliy real hayotda uni tashkil etuvchi shaxslardan iborat ekan, o'zga millatlar doirasida o'z millat vakillarining erishgan yutuqlaridan xursand bo'lish, shu millat vakili bo'lgani bilan fahrlanish yoki, aksincha, millatdoshining boshiga og'ir kunlarni huddi o'zining eng yaqinlarining boshiga tushgan og'ir kunlar kabi ruhiyatning mavjudligi milliy g'oyaning qudratidandir. Bunday holat har bir millat vakili uchun muqaddas qadriyatdir”²².

Mustamlakachilik tuzumining millatlararo munosabatlar borasida olib borgan siyosat oqibatida paydo bo'lgan barcha xato va kamchiliklarni milliy yoki mintaqaviy xodisa sifatida o'rganib kelindi. Millatlararo munosabatlar borasidagi bunday xatoliklar va kamchiliklar keynchalik ayrim mintaqalarda millatlararo munosabatlar borasida qator ziddiyatlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi.

70-80-yillarda mamlakat iqtisodiyotida ro'y bergan tanglik, ijtimoiy, manaviy va axloqiy sohalaridagi buzilishlar, poraxo'rlik, tanish-bilishchilik, vazifasini suistemol qilishlar, qo'shib yozishlar va boshqa salbiy hodisalar milliy va millatlararo munosabatlarning holatiga keskin tasir ko'rsatdi. Ana shu salbiy hodisalarning hammasi har xil millatchilik kayfiyatlarning nimoyon bo'lishi, millatlararo nizolar vujudga kelishi uchun negiz yartadi.

²¹ Otamurodov S., Xusanov S., Ramatov J., Ma'naviyat asoslari. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. –B. 48.

²² Ханазаров К. Ҳозирги замон ва мустиқил Ўзбекистонда миллий муносабатлар. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998. –Б.78.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mustaqillik yillarida Vatanimizda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish borasida, milliy ziddiyatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi haqida ko'p gapirib o'tmoqda. Prezident o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida millatlararo munosabatlar borasidagi xatoliklar, milliy ziddiyatlarning xavf-xatari to'g'risida gapirib shunday deydi. «...ko'p millatli va ko'p tilli mamlakatlarda o'z davlatiga nom bergan asosiy millat bilan, bu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi etnik ozchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ichki siyosiy ahvolning barqarorligi, milliy xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi ko'p millatli davlatda yashayotgan boshqa millat vakillarining siyosiy xayrixoxligiga bevosita bog'liq bo'ladi»²³.

O'zbekistonning tub aholisi – o'zbeklardir. Respublikaning ikkinchi tub aholisi qoraqalpoqlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlarni tashkil etadi. Respublikada ulardan tashqari tatarlar, qrim tatarlari, ozarbayjonlar, boshqirdlar, uyg'urlar, belaruslar, shuningdek, polyaklar, chexlar, slovyanlar, bolgarlar istiqomad qiladi. Shuningdek, O'zbekistonda forslar, pushtunlar, blujlar, koreslar, armanlar, yaxudiylar va boshqalar ham yashaydi. Ularning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish uchun respublikamizda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida yurtimizda millatlararo munosabatlarni yaxshilash va takomillashtirish maqsadida ko'plab millat vakillariga o'z ona tilida ta'lim olish imkoniga ega bo'ldilar. Bugungi kunda qaysi millat vakillari qaerda zich va ko'pchilik bo'lib yashayotgan bo'lsalar, o'z ona tilida ta'lim beriladigan maktablarda bilim olmoqdalar. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda o'zbek, qozoq, rus, tojik, koreys va boshqa millatlar tillarida ta'lim beriladigan maktablar soni ortdi. Ko'plab oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan, Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika universitetida o'zbek, rus, qozoq va koreys tillarida ta'lim berib

²³ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998. –Б. 36.

kelinmoqda. Kadrlarni joy-joyiga qo'yish, madaniyat va manaviy boyliklarni taqsimlash masalalarida ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanmoqda. Milliy tillarda ro'znomalar, kitoblar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar va boshqa adabiyotlar nashr etilmoqda. Ko'pchilik millatlarning ehtiyojlari hisobga olinib, televizion ko'rsatuv va radio eshittirishlar doirasi kengaytirildi, milliy madaniyat markazlari ochildi. Boshqa millatlarning vakillari davlat va jamoat ishlariga jalb qilinmoqda.

Mustakillikni qo'lga kiritgach, Markaziy Osiyo davlatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy islohatlarning mazmuni va sur'atlaridagi ayrim farqlar millatlar va elatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga salbiy tasir ko'rsatishi mumkin. Ana shuni etiborga olgan holda I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «Ko'p millatli davlatda etnik guruhlar o'rtasidagi va millatlar o'rtasidagi munosabatlar milliy havfsizlik tushunchasini shakllantiruvchi ta'sirchan omillardan biri ekanligi aniq bo'la boshladi.

Etnik guruhlar o'rtasidagi va millatlar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish sobiq sovet makonida yangi mustaqil milliy davlatlar qaror topayotgan davrda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda».

Mintakamizda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni saqlab turish uchun milliy siyosat yurgizishda quyidagilarni esdan chiqarmaslik kerak:

- tarkib topgan davlat chegaralarini, ularning daxlsizligini tan olish;
- mustakillik tufayli xalqlar milliy o'zligini anglashning rivojlanishi orqaga qaytmagan jarayon ekanligini hisobga olishlik;
- mintaqada yashayotgan xalqlarning o'zaro yaqinligi millatlararo munosablarda ijobiy tasir ko'rsatishini inobatga olish;
- respublikamizda “Turkiston-umumiy uyimiz” harakati amalga oshirilayotgan etnik siyosat o'zining yo'nalishi va mazmuniga ko'ra, inson-parvar, konstruktiv jarayon ekanligini nazarda tutish;
- Mintaqadagi integratsiya jarayonlari ham barcha xalqlar va butun ko'p-millatli aholining davlat va milliy manfaatlarining eng maqul darajada uyg'unlashtirishga asoslangan holda rivojlanishini etiborga olish.

Etnik guruhlar, millatlararo munosabatlar masalasida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar qanday salbiy oqibatlarga olib kelganligini, nimalarda namayon bo‘layotganligini bilish, milliy masalada kelajakda bunday vaziyatlar takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ularni keltirib chiqargan va keskinlashtirib yuborgan sabablarni chuqur va atroflicha idrok qilish milliy siyosat yuritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat hayoti barqarorligiga asosiy tahdidlardan biri millatchilikdir. Insoniyat tarixi millatchilik qanday salbiy oqibatlarga olib kelish mumkinligini allaqachon isbotlab berdi. Ko‘p millatchi davlatlarda barcha millatlarga teng huquqli asosda e‘tibor berilmaslik millatchilik holatlarini paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Millatchilik ijtimoiy voqelik va unda kechayotgan jarayonlar millat tarixiy taraqqiyotining bosh sub’ekti, milliy munosabatlar va ijtimoiy munosabatlarning asosiy turi, degan nuqtai nazardan kelib chiqib baholana boshlangan makon va zamonda shakllandi. Sobiq ittifoq davrida millatparvarlik, milliylik millatchilik sifatida baholangan edi.

XX asr oxirlariga kelib millatchilik tajavuzkor millatchilik, millatparast davlatlar, mintaqalar uchun asosiy xavf-xatarlardan biriga aylandi. Ular millatlarni tengligini inkor etishga, o‘z millatini boshqa millatlardan ustun qo‘yishga, o‘z millatiga sajda qilishga, o‘z millatiga xos bo‘lgan nuqsonlarni va kamchiliklarni sezmaslikka harakat qilmoqdalar.

Millatning madaniy merosi turli davrlarda, turlicha imkoniyatlar va ehtiyojlar asosida shakllanadi. Ularni boshqacha sharoitlarga ko‘ra ko‘r-ko‘rona tatbiq etishga urinishi noto‘g‘ri. Qadriyat darajasiga ko‘tarilib, hozir ham amaliy ahamiyat kasb etgan merosgina milliy uyg‘onishga, millatlararo totuvlikni ta‘minlab berishga xizmat qiladi. Yangi davr xususiyatlarini o‘zida to‘la mujassamlashtirib, boyib, rivojlanib borayotgan merosgina va qadriyatlargina hayotga singadi va rivojlanadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda millatlarning bir-biriga yanada jipslashtirishga, ular o‘rtasidagi totuvlik va inoqlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan milliy, diniy marosimlar, urf-odatlar va an‘analar tiklanmoqda hamda rivojlanmoqda.

1.3. Milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi

O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligining konstitutsion ta'minlanishi fuqarolarda din va diniy qadriyatlarga nisbatan adolatli va xolisona munosabatni belgilash imkoniyatini yaratdi.

Sho'rolar hukmronligi davrida har qanday din(lar) ma'naviy-ma'rifiy qoloqlikning natijasi, jamiyat va inson kamoloti yo'lidagi to'siq hisoblanib, uni kishilar ongidan, xalqlar hayotidan batamom siqib chiqarishga zo'r berilgan edi²⁴. Endi ma'lum bo'ldiki, aslida har bir din, xususan, islom dini jamiyat, millat ma'naviyatini yuksaltirishda, komil inson shaxsini shakllantirishda juda muhim o'rin tutar ekan. Shu bois, mamlakatimizning mustaqillikka erishishi va uni mustahkamlash yo'lidagi dastlabki sa'i-harakatlar xalqimiz hayotida diniy qadriyatlarni tiklash, kishilarimizning diniy e'tiqod erkinligini ta'minlash, davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishdan, umuman dinlarni chuqur o'rganish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan boshlangan edi.

Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda yaxshi niyatlar yo'lida hamkor va xamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Asrlar mobaynida din aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib kelmoqda. Bugungi kunda tajavuj bo'lgan barcha dinlar, shu jumladan islom dini ham ezgulik g'oyalariga asoslanadi yaxshilik, hamjihatlik, totuvlik o'zaro hurmat bir-birlarini anglash, millat ravnaqi yo'lida fidoiylikka undaydi.

Bugungi kunda bu g'oya millatlararo totuvlikni ta'minlab berish yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi.

O'zbek xalqining madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharqning ma'naviy o'choqlaridan biri bo'lib kelgan. Bundan tashqari, biz yashab turgan hudud g'oyat xilma-xil diniy e'tiqodlar, dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan mintqa hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda,

²⁴ Мамашокиров С., Ўтамуродов А., Р.Қодирова Э. ва бошқ. Миллий тараққиётнинг ғоявий-мафкуравий асослари. —Тошкент: 2008. —Б.127.

O'zbekiston hududi nafaqat Sharq, balki umumjahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek, bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan²⁵.

Ma'lumki, har bir millat tarixan dinlarning birortasi ta'sirida bo'ladi, unga imon keltiradi, e'tiqod (ixlos) qiladi. Jahon dinlari o'z mohiyati jihatidan baynalminal xususiyatga ega bo'lsa-da, ammo ular milliy qadriyatlarni saqllovchi, e'zozlovchi va rivojlantiruvchi ma'naviy vosita sifatida ham maydonga chiqadilar. SHuning uchun ko'pincha millat diniy shiorlar ostida o'z mustaqilligi uchun kurashadi. Masalan, 1918-1923 yillarda O'zbekistondagi milliy-ozodlik urushi islom shiorlari va qadriyatlari asosida borgan. Chunki mahalliy aholining milliy asosiy ko'pchiligi diniy qadriyatlar orqali milliy qadriyatlarni anglab kelganlar, binobarin, millat sha'nini diniy qadriyatlar orqali himoya qilganlar. Demak, o'sha tarixiy vaziyatda mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik uchun kurashga xalq ommasini safarbar etishda diniy shiorlar qo'l kelgan. Biroq, istiqlolchilik harakatining asosiy mafkurachilari islom aqidaparastlari bo'lgani sababli millat sha'nini himoya qilishda birlik, jipslikka putur etgan, oqibatda rus bolsheviklari milliy-ozodlik harakati qatnashchilarining oralarini buzishga erishib, osonlikcha tor-mor keltirish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Demak, diniy qadriyatlarning milliy qadriyatlar uyg'unlashuvi jarayoniga konkret (aniq) tarixiy nuqtai nazardan yondashib, baholash va munosabat bildirish lozim. Ba'zi bir tarixiy sharoitda konkret mamlakatda diniy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlarning uyg'unlashuvi ijtimoiy taraqqiyot va inson kamolotiga xizmat qilsa, boshqa bir mamlakatda va boshqa bir tarixiy sharoitda u taraqqiyot va inson kamoloti zavoli ham bo'lishi mumkin.

Masalan, ijtimoiy ong diniy va milliy qadriyatlar bilan qorishib ketishi dinlarning siyosiylashuvi uchun g'oyaviy negiz bo'lib, real milliy qadriyatlar diniy

²⁵ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк // Биз ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Танланган асарлар. Т. 7. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б.132.

qadriyatlar bilan almashinadi. Natijada diniy zaminda millatlararo mojarolar, katta-katta urushlar ham kelib chiqadi. Vahhobiylik, xizbuttahrirchilik g'oyalari arab — musulmon olamida tarqalgan bo'lsa-da, har bir mamlakatda ular go'yoki milliy manfaatlarining himoyachilari sifatida o'zlarini ko'rsatishga harakat qiladilar. Milliy qadriyatlarni tushunmagan, o'z millati sha'nini unutgan ba'zi kimsalar ularga ergashib, o'z millatiga xiyonat qilishgacha borib etadilar.

Millatlararo va dinlararo munosabatlar insonparvarlik yo'nalishida qaror topish va muomala madaniyatida katta tarixiy tajriba to'plagan o'zbeklarda milliy va diniy bag'rikenglik millat sha'ni uchun kurashning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu hol O'zbekistonda yashayotgan va turli diniy e'tiqodga ega xalqlar, millat va elatlar namoyandalariga qo'lni-qo'lga berib, buyuk istiqbol uchun kurashda yakdil bo'lishlari uchun o'ziga xos shart-sharoit vazifasini o'tamoqda²⁶.

Barcha dinlar jumladan islom dini qadriyatlarini chuqur o'rganish, ularning imkoniyatlaridan millatlararo totuvlikni ta'minlash yo'lida samarali foydalanish milliy uyg'onish, milliy tiklanish jarayonining muhim tomonidir. Diniy qadriyatlar milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Insonparvarlik, adolatparvarlik, qo'shnichilik, boshqa millat vakillariga hurmat bilan qarash haqidagi diniy qadriyatlarning zamini ijtimoiy xayotning o'zidadir. Har qanday qadriyat inson qalbi va ongiga chuqur singishi, uning e'tiqodiga aylanishining muhim shartidir. Din ham jamiyatdagi ijtimoiy muhitni barqarorlashtirishga, takomillashtirishga qaratilgan g'oyaviy qarashlardan biridir.

Diniy ahloq hamda xuquqni mohiyati va mezonlarining chuqur o'rganish, ularni xayotga joriy etish komil insonni tarbiyalashga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Diniy meros va qadriyatlarning milliy uyg'ornish va poklanishga, barcha millat vakillarini teng ko'rishga, shu orqali milliy tiklanishga ko'rsatayotgan ijobiy ta'siri ham shundadir. Shu bilan birga diniy qadriyatlarini millatlararo totuvlikni ta'minlab berishdagi ahamiyatnin xaddan tashqari bo'rttirib yuborish kerak emas.

²⁶ Лафасов М., Юсупов Ў., Номозова К. Миллий —маънавий тикланиш. Ўқув қўлланма. —Тошкент: 2008. — Б.191.

Yurt tinchligi, barqarorlik, millatlararo totuvlikni ta'minlab berishda diniy g'oyalarning roli katta bulsada u asosiy va yolg'iz mezon bo'la olmaydi.

Millatlar uchun zarur bo'lgan milliy uyg'onish, ruhiy poklanish diniy an'analarga rioya qilishgina emas, balki asosiy dunyoviy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarning hal etishga yo'l izlashdir.

Dunyoning ayrim mamlakatlarida diniy qadriyatlarni oyoq osti qilish, e'tiqodga qarab ajratishga qilinayotgan harakatlar turli millat vakillari o'rtasida kelishmovchiliklarni kelib chiqishiga sababchi bo'lmoqda.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq ayrim mintaqalardagi fojeadan xulosa chiqargan holda, hamda diniy qadriyatlardan tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlardan tashqari diniy qadriyatlarimizga ham alohida o'rin berilayotganligi tasodifiy hol emas. Chunki milliy va diniy qadriyat o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Ular doimiy ravishda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi, bir-biri bilan muloqotda, birgalikda mavjud bo'ladi. Milliy va diniy qadriyatlar mutelikdan, fikr qaramligidan qutulish, milliy o'zlikni anglashga xizmat qilishi bilan ular jamiyatda demokratik umumbashariy tamoyillarining qaror topishiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda respublikamizda islomdan tashqari yana ko'plab ro'yxatdan o'tgan diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatishmoqda. Ular dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish jarayonida milliy zaminda mojarolar chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun ham kurashmoqdalar. Binobarin, milliy o'zlikni anglash insoniy yo'nalishda rivojlanishga munosib hissa qo'shib, o'zlari mansub bo'lgan millat sha'niga dog' tushirmaslikka harakat qilmoqdalar. Zero, milliy o'zlikni anglash chinakam baynalminalchilik his-tuyg'ulari ham rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Buyukmillatchilik, buyukdavlatchilik shovinizm, milliy kalondimog'lik va diniy mutaassiblikka qarshi kurash jarayonida millat sha'ni-shavkati va shuhrati oshib boradiki, buni aslo unutmaslik zarur.

O'zbeklar tarixan boshqa xalqlar, elatlar va millatlar hamda o'zga diniy e'tiqod egalari his-tuyg'ulariga zo'r hurmat qilish ruhida tar-biyalangan jahondagi

zakovatli millatlar sirasiga kiradilar. Sahovatpeshalik, ochiqko'ngillik, rahm-shafqatlilik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, rioya-andishalik, izzat-ikromlilik — bular o'zbek milliy tabiat (mentaliteti)ning ajralmas hususiyatlari bo'lib, bu kabi fazilatlar tufayli ular o'z millati sha'ni uchun kurashib keladilar.

Xulosa qilib aytganda, millat sha'nini ko'tarishda bugungi kunda ulg'ayib, voyaga etib borayotgan yoshlarni alohida o'z o'rnini bildir. O'zbekistonning kelajagi bugungi kun yoshlarining qo'lidadir. O'zbekiston yoshlari turli sohalarda erishayotgan yutuqlari bilan yurtimizni dunyoga tanitmoqdalar va millatimiz sha'nini ulug'lashga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Yurtimizni ko'plab iqtidorli yoshlari dunyoning taniqli universitetlarida tahsil olib o'z qobiliyatlarini namoyish etib kelmoqdalar.

Yurtboshimiz yoshlarimiz erishayotgan yutuqlardan, millat sha'nini ko'tarishga qo'shayotgan hissalaridan faxrlanib, sizlarni o'z farzandlarimdek ko'raman, sizlar erishayotgan yutuqlar bilan faxrlanaman, degan gaplarni doimo ta'kidlab kelmoqdalar. 2008 yilni mamlakatimizda "Yoshlar yili" deb e'lon qilinishi millat sha'nini ko'tarishda, tinchlik va barqarorlikni ta'minlab berishda yoshlarga yuksak ishonchlar bildirilayotganligidan dalolat beradi.

II BOB. MILLIY – MA’NAVIY TIKLANISHNI TA’MINLASHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O’RNI

2.1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi

Milliy o’zlikni anglash, qadriyatlarni qayta tiklash jarayoni bevosita o’zbek xalqining ma’naviy va madaniy merosini, uning milliy an’ana va urf-odatlarini o’z ichiga olgan ma’naviy hayoti tarixini chuqur o’rganish bilan chambarchas bog’liqdir.

Hammamizga ma’lumki, jahon sivilizatsiyasidan ajralgan, o’zining alohida tarixiga ega millat bo’lgan emas. Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalaimay turib rivojlana olmaydilar. Barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy rivojlanish tarixi bir-biri bilan chirmashib, taraqqiy etib kelgan. Shuning uchun ham har bir millat o’z doirasida cheklanib qolmay, boshqa millatlar va xalqlar bilan birgalikda taraqqiy etishi lozim.

Butun jahon iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyoti xalqlar, millatlar, elatlar, urug’lar va qabilalar tarixiy, taqdirlarining o’zaro bog’lanishi, chirmashuvi, bir-birini to’ldirishi asosida amalga oshadi. Agar biror millat boshqa millatlar bilan o’zaro o’xshash xususiyatlarga ega bo’lmaganda, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo’lmaganda, u ulardan o’rganmagan va o’zidagi yutuqlarni boshqalar bilan baham ko’rmaganda edi, u tanazzulga uchragan millat bo’lgan bo’lur edi. Bunday millat jahon sivilizatsiyasining samaralaridan foydalana olmagan bo’lardi.

Xalqlarning ulug’vorligi milliy mahdudlikda emas, balki umuminsoniy xususiyatlarga ega ekanligida, jahon sivilizatsiyasiga qo’shadigan hissasidadir. Ayni choqda boshqa bir narsani ham e’tibordan soqit kilmaslik kerak. Milliy manfaatlarni, milliy qadriyatlarni umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarga qarama-qarshi qo’yish, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muammolarni qaysidir millat va elatning manfaatlariga xilof ravishda xalq etishga intilish, milliy manfaatlar baxonasida milliy xudbinlikni, tekinxo’rlikni olqishlash

millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bir millatning maifaati va qadriyatlari boshqa millatnikidan ajratilmagan holda o'rganilishi kerak.

Millatlararo totuvlik milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi va bog'liqligini cho'qur anglash natijasi hamdir. Millatlarning manfaati, qadriyatlari asrlar mobaynida o'zaro bog'liqlik holda rivojlantirilib kelingan. Mintaqamizdagi bu boradagi yuksalish davrlari ushbu bog'liqlik asosida amalga oshirilgan. Turli millatlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohadagi aloqalar hozir ham milliy uyg'onishga, millatlararo totuvlikni ta'minlab berish jarayoniga ijobiy ta'sir qilmoqda.

Bizning davrimizda davlatlararo munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar axloq va ma'naviyatning ustunligini e'tirof etish, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumli mamlakatlar o'zaro hamkorligining umumiy yo'nalishini hosil etuvchi asosiy omil sifatida qaror toptirish tamoyili tobora yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda.

Buning zarurligini ziddiyatli. va ayni vaqtda yaxlit holda bog'liq bo'lgan butun dunyoda olib boriladigan iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda o'z mazmuni bilan, shu jumladan barcha xalqlar umumsivilizatsiyasining uzviy qismi sifatida tushunish kerak bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlarni nazar-pisand qilmaslik — jahon hamjamiyatiga, uning ma'naviy sog'lomligiga tuzatib bo'lmas darajada ziyon-zahmat etkazish demakdir.

Mustaqillik qo'shni mamlakatlar, turli millat vakillari bilan barcha sohalardagi aloqalarni rivojlantirib borish imkoniyatlarini oshirib bormoqda. Asosiy vazifa bu imkoniyatlardan oqiloni fodalana bilishdir. Umuminsoniy qadriyatlar, milliy madaniyatlar rivojiga katta hissa qo'shsa ham, aslo uning o'rnini egallay olmaydi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur va xolisona o'rganish millatlararo totuvlikni ta'minlab berish jarayonini tezlashtiradi.

Bir vaqtning o'zida faqat milliy qadriyatlar manfaatlari bilangina, bir tomonlama, ya'ni sinfiy xarakterda cheklanib qolsak, materialistik dialektika

metodologiyasiga zid ravishda ish tutgai bo‘lamiz. Ayni bir vaqtda dialektikani e‘tibordan soqit qilish ba’zi tadqiqotchilarga pand berdi, yagonalik, alohidalik va umumiylik kategoriyalari asosida baxo berishda bir tomondan boshqa tomonga sapchishga, haddan oshishlarga imkon yaratib berdi.

Ong odatda turmushdan orqada qoladi. Ongning bir qismi bo‘lmish tafakkur esa doimo ham voqelikning rivojlanishi bilan .bir safda borishga ulguravermaydi. Bunday hol tafakkurni aqidaparastlikning qolipiga joylashtirishga harakat qilinganda yuz beradi. Ayni shu sababli umuminsoniy va milliy jihatlarining dialektikasi to‘g‘risidagi ta’limot namoyandalarining ko‘pchiligi nohaq unutilgan, noto‘g‘ri baholangan yoki ongli ravishda tilga olinmay kelingan. Endilikda bu jihatlarining o‘zaro aloqadorligini ham huquqiy, ham insoniy tomondan tiklash zarur. Bu avvalo, mamlakatimizning insonparvarlik mohiyatini, umumjahon xalqlarining o‘zaro foydali manfaatlarini ifodalagan bo‘lur edi.

Shuning uchun ham umuminsoniy va milliy manfaatlar, qolaversa qadriyatlarni o‘tib bo‘lmas to‘siqlar bilan ajratmasdan, balki ularni tadqiq etib, ular o‘rtasidagi har tomonlama aloqadorlik va bivositaliklarni aniqlashimiz va bundan ilmiy xulosa chiqarishimiz lozim.

Zamon talablaridan kelib chiqib, to‘g‘ri yondoshuv ayniqsa zarurdir. Iqtisodiy-siyosiy, madanni-ma’naviy, ilmiy-texnikaviy va shunga o‘xshash boshqa omillar, harbiy soxaning, aloqa va axborot yig‘ishning rivojlanishi mamlakatlar va xalqlarni tobora ko‘pro‘q yaqinlshtirmoqda. O‘zaro bog‘liklik bunday o‘sib borayotgan shart-sharoitda umuminsoniy muammolar ayrim sinflar, iqtisodiy sistemalar, millatlar, madaniyatlar, dinlar va mafkuralar doirasidan chetga chiqmoqda. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, mamlakatimizning hozirgi tafakkuri va uning siyosati o‘zida sinfiy, milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlarni birga qo‘shishi, birlashtirishi kerak.

Mamlakatni turli sohalardagi rivoji ma’lum xalq va millat faoliyati tarixi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bir tomondan milliylik xususiyatiga egadir. Ikkinchi tomondan esa, jamiyatdan ajralgan holda, alohida millat, xalqlarning

mavjud bo'la olmasligi sababli, butun insoniyatga xos bo'lgan umuminsoniy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Millatlararo totuvlikni ta'minlab berishda milliylik va umuminsoniylik o'zaro uyg'unlik holda, bir-birini to'ldirib, boyitib boraveradi. Sobiq sovet tuzumi davrida millatlarga xos bo'lgan xususiyatlarning kamsitish, ularning sotsializm qurish maqsadlariga bo'ysundirish asosiy yo'nalish bo'lib kelgan edi.

Baynalminallik bayrog'i ostida bir millatning milliy qadriyatlarga sajda qilish, ulardan o'rnak olish va ular yo'lidan borish targ'ib etildi, bundan chekinganlar qoralandi. Sobiq sovet tuzumiga barham berilgandan so'ngina har bir xalq o'zining milliy qadriyatlaridan bahramand bo'lish imkonlariga ega bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yurtimizda yashayotgan millatlar madaniyati taraqqiyotiga keng yo'l ochib berildi. Toptalgan, kamsitilgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar qayta tiklandi.

Milliy xayot va taraqqiyotda milliylik, uning o'tmishi, kelajagi, ijtimoiy turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlari, an'analari, tili, u vujudga kelgan xudud va boshqalar bilan uzviy bog'langandir. Ular turli xil shakllarda, bir-birlari bilan uzviy aloqada namoyon bo'lib, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimida, avvalombor til, qon-qardoshlik, madaniy-ma'naviy yaqinlik va shu singarilar yagona asosga ega ekanligi barqarorlikni ta'minlab beradi. Milliy qadriyatlar qadriyatlar tizimida o'z o'rnini va ahamiyatini uzoqroq saqlab qolish xususiyatiga ham ega.

Har bir millatda va shu millatning milliy g'ururiga ega bo'lgan a'zosida millatga xos bo'lgan qadr-qammatni saqlash, hurmat qilish, e'zozlash, boyitish va rivojlantirish tuyg'usi bo'ladi. Millatlarning o'zini-o'zi anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlar ham, milliy qadriyatlar ham kuchayib, mustahkamlanib boraveradi.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko'ra faqat tor doirada saqlanib qolmaydi, balki boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib, turmush jarayonida yangilanib rivojlanib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqiyosda amal qilishi, dunyodagi ko'plab xalqlar, millatlar, elatlarning o'tmishidagi, hozirgi va kelajak taraqqiyoti bilan chambarchas aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon sivilizatsiyasining yaxlit bir butunligini ifodalanganligi bilan milliy qadriyatlardan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar xilma-xil bo'lib milliy nizolarni oldini olish, millatlararo totuvlikni ta'minlab berish ham uning asosiy qadriyatlaridan hisoblanadi. Umuminsoniylik alohida millat qadriyatlarini butun olamga targ'ib qilish yo'li bilan emas, balki barcha millat va elatlarning qadriyatlarining avaylab-asrash, uyg'unlashtirish, xurmat qilish va jahondagi milliy xilma-xillikning umumbashariy xilma-xillik bilan uzviyligini anglash orqali boyib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar, xalqlarning maqsad intilishlarining yaxlitligi va umumiyligini ifodalaydi.

Turli ijtimoiy-siyosiy tuzumni davlatlar o'z milliy qadriyatlarini, umuminsoniy qadriyatlar bilan umumlashtirgan bugungi kunda ham mavjud bo'lgan millatchilik singari illatlardan holi qilgan holda ustunlikka erishtirish kerak.

Hozirgi umumbashariy muammolar mana shu masalaning umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan turib xalq qilinishiga hammadan ko'ra ko'proq majbur etmoqda.

Millatlararo totuvlikni ta'minlab berish, millatidan qa'tiy nazar barcha insonlarni omon qolishi ularning huquq va erkinliklari, umumjahon iqtisodiy mexanizmining yangi bosqichi, har tomonlama hamkorlik va qo'shnichilikning zaruriyatlari, ekologik, energetik muammolar va umuminsoniy boy tarixiy meros, insonlarga xos umuminsoniy fazilatlar, hozirgi dunyoning yaxlitligi va o'zaro bog'liqligi, uning ziddiyatlari mohiyatining o'zgarishi ularning asosiy, tub mohiyatli xususiyatlaridir.

Umumjahon sivilizatsiyasi jarayonida barcha millatlar va yangi milliy hosilalarning roli oshgan hozirgi kunda xalqaro munosabatlar o'zining milliy

harakterini yo‘qotmagan holda o‘zini borgan sari ko‘proq darajada ayni xalqlar orasidagi munosabat sifatida ro‘yobga chiqarmoqda. Bunday vaziyatda «tashqi» (jahon miqyosi) va «ichki» (milliy) jihatlarni turli mustaqil sohalar bo‘yicha ajratish o‘rinli ekani dargumon bo‘lsa kerak. Zero, «jahon miqyosidagi» jihat «milliy» jihatga nisbatan olganda — mahalliy (sinfiy, sotsial, milliy) muammolarga faqat arziyas tuzatishlar kirituvchi qandaydir «tashqi omil» emas, balki keng yoyiluvchi ichki reallikdir. Ayrim davlatlar va millatlar shakllanayotgan jahonshumul yaxlitlik elementlar sifatidagina hozirgi o‘zaro bog‘liq dunyoning mustahkam qismlariga aylanadi va chinakamiga tushunilishi mumkin.

Umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi ayni vaqtda milliy qadriyatlarni mustahkamlab, ularga yangi olamshumul va milliy realliklarga javob beradigan shakllar berish zarurligini taqozo etadi. Taraqqiyparvar kuchlar o‘z mamlakatlaridagi milliy manfaatlar va qadriyatlarni dunyodagi o‘sib borayotgan qiziqishlar bilan o‘zaro bog‘lashga harakat qilmoqdalar.²⁷

Barcha jahon olimlari hozirgi umumbashariy muammolarni umum-insoniy maqsadlardan kelib chiqib hal etmasdan turib, o‘z milliy kelajaklarini dunyo bo‘yicha mushtarak xavf-xatarlardan qurolli ixtilof, ekologik falokatlar, qashshoqlik va ocharchilikdan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy yagonalashuvdan, moddiy va ma’naviy meroslar xalokatidan qutqarib qolishi mumkin emas - degan xulosaga keldilar. Dunyo xalqlari umumiy insonparvarlik qadriyatlarini va hamma uchun yagona bo‘lgan shaxs huquqlarini hurmat qilishni qabul qilmagunlariga qadar ular oldida na butun hamjamiyat oldida turgan muammolarning birortasi ham muvaffaqiyatli hal etilishi, xalqaro xavfsizlikning ham mustahkam himoya qilinishi mumkin emas.

Dunyoning barcha tinchliksevar davlatlari singari Mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan millatlararo totuvlikni ta’minlab berishga qaratilgan siyosati xalqimizni o‘tmishdan shakllanib kelgan insonparvarlik qadriyatlariga suyanadi.

²⁷ Ортиқов Н. Маънавият: миллий ва умуминсоний қадриятлар. —Тошкент: 1997.

Prezidentimiz I.A.Karimov ko'rsatib o'tganlaridek, "Insonparvarlik, yaxshilik, sofdillik singari umuminsoniy qadriyatlarini qabul qilgan va birgalikda baham ko'rgan mamlakat, xalqgina butun dunyo xalqlariga yaqin va tushunarli bo'lishi, jahon hamjamiyatiga qabul qilinishi mumkin".

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi shu qadar qat'iyki, ular bir-biri bilan shunchalik mustahkam «chatishib» ketganki, ularning loaqal birortasini «tushib» qolishi butun zanjirning uzilishiga olib kelishi mumkin. Butun insoniyatga tuzatib bo'lmaydigan zarar etkazishga qodir, tor ma'noda tushuniladigan milliy qadriyatlarning torozi pallasini bosib ketishi tufayli og'ish sodir bo'lmasligi uchun buni doim esda tutish lozim.

Hozir yagona jahon yaxlitligi doirasida mavjud bo'lgan mamlakatlar o'rtasida o'zaro ta'sir, birgalikda faoliyat ko'rsatish va yonma-yon suyanib rivojlanish qonunlarining ta'siri ko'zga tashlanmoqda. Bu esa kishilik jamiyatining tarixan belgilanib qolgan turmushini tubdan o'zgartirish konunlarini bir qadar tezlashtirib yubordi. Chunonchi, «uchinchn dunyo» davlatlari jahon xalqlarining ijtimoiy tajribasi va texnikaviy vositalarini o'zlashtirib, rivojlanishning an'anaviy tiplaridan jiddin farq qiluvchi yangi tipini shakllantirmoqda. Boshqacha aytganda hozirgi dunyoda ijtimoiy tabaqalarni, ularning «sof ko'rinishida», bir-birlaridan ajralgan holda chinakamiga ilmiy, har tomonlama, dialektik tasavvur qilish qiyin hamda samarasizdir. Jahon sivilizatsiyasining rivojlanish yo'lini shunchaki oddiy hol deb qabul qilmaslik kerak. Ko'p ukkladli mamlakatlarni yaxlit jahon taraqqiyotining butun xilma-xilligida bilib olish, tadqiq qilish, o'zlashtirish, sivilizatsiya singari kategoriyalarning mohiyatini anglab etish, insoniyatning olg'a borishida «ma'rifatli» va «farmatsion» jihatlarning o'zaro aloqadorligini aniqlash lozim bo'ladi. Rivojlanish omilining ahamiyatga molikligini shubha ostiga olmasdan, biz nazariyada ham, amaliyotda ham dunyoda qarama-qarshiliklarning mavjudligi uning yaxlitligidan qolishmaydigan darajada realligiga tegishli e'tibor bermasligimiz mumkin emas. Milliy xudbinlik har qanday bitishuv, qo'shiluv va murosani istisno etadi, binobarin, olg'a qarab harakat qilishning

yo'liga g'ov qo'yadi. Dunyoning yaxlitligi g'oyasi turli ijtimoiy tuzumli davlatlarning hamkorligisiz amalga oshishi mumkin emas.

Har bir xalq o'z milliy manfaatlarini, milliy qadriyatlarini e'tiborga olish bilan bir qatorda boshqa davlatlarning manfaatlarini xurmat qilishi kerak. Zero xaqiqatdan tinchlik, yaxshi qo'shnichilik, har tomonlama hamkorlik, o'zaro ishonch nafaqat omon qolish, balki ko'pgina ijtimoiy vazifalarni hal etishga, insonlarning siyosiy huquqlarini, milliy va ma'naviy boyliklari va meroslarini saqlash orqali umummilliy qadriyatlarni ta'minlash hamdir. Shu bilan birga dunyoda, ayrim mamlakatlardagi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, partiyalar, davlatlar va ular tartibotlarning o'ziga xos vazifalari real muammolar bo'lib qolaveradi. Jahonshumul muammolarni xal qilishning shoshilinchligini inkor etish, ularning umuminsoniy manfaatlarini yanada ta'sirchan himoya qilishga intilishi bilan belgilanuvchi taraqqiyparvar harakatlarning obro'si, ta'sirini oshirish imkoniyatlariga e'tibor bermaslik mulohazasiz ish tutish bo'lur edi. Shu sababli bunda shoshilinch yangilash, hamma narsani o'ylamay-netmay qayta ko'rib chiqish ham, o'zlashtirilgan erlardan yangi erlarga o'tishdan hadiksirovchi qo'rqoqlarcha aqidaparastlik ham samarasizdir.²⁸

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o'zaro munosabatini dialektik tushunish mamlakat ichida ham, jahon maydonida ham samarali ta'sirchan siyosatni, iqtisodiyot va madaniyatni yaratish juda katta ahamiyatga ega. Darvoqe, faoliyatning istalgan soxasi uchun davlatlar hamjamiyatida yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida payqash va hisobga olish muximdir.

Hozirgi davrdagi jarayonlarni tadqiq qilishga yangicha tafakkurni izchillik bilan qo'llash dunyoning chinakam ilmiy manzarasini yaratishga, uning davlatlar, siyosiy va jamoat tashkilotlarining o'zaro ijobiy, bunyodkorona hamkorligini yo'lga qo'yishga yordam beradi. Biz endilikda inson zotining mushtarakligini anglab eski andozalardan asta-sekin xalos bo'layapmiz, yangicha tafakkurda nafaqat tafovut, ixtiloflarni, balki yangicha hayot uchun

²⁸ Лафасов М., Юсупов Ў., Номозова К. Миллий —маънавий тикланиш. Ўқув қўлланма. —Тошкент: 2008. — Б.185.

gʻoyat zarur boʻlgan tajribaning juda boy manbaini ham topmoqdamiz. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlarga yoʻnaltirish hukumatlar, siyosiy kuchlar, barcha ijtimoiy guruhlar va jamoalardan oʻz manfaatlari va faoliyatlarini xalqaro munosabatlarga insonparvarlik ruhini singdirish yoʻli bilan qaratishni taqazo etadi. XX asrning ikkinchi yarmigacha tarixiy voqelik oʻzida yaxlit narsa sifatida sivilizatsiyani, oʻz-oʻzini inkor etish imkoniyatiga ega emas edi, insoniyatga mangu mavjudot sifatida qaralar va uning oʻzini saklash tugʻrisida gʻamxoʻrlik qilishga oʻtkir ehtiyoj yoʻq edi. Endi umumiylikdan xususiylikka sari aks taʼsir aloqa ham yuzaga keldi: individlar xayotini kullab-quvvatlash va takror xosil qilish butun kishilik zotini saqlab qolishga bevosita bogʻliq boʻlib qoldi. Shu sababli uning omon qolishi toʻgʻrisidagi gʻamxoʻrlik obʻektiv ravishda kishilik borligining oʻz jisman mavjudligini saqlab qolish vositalariga boʻlgan azaliy ehtiyojlari singari ana shunday eng birinchi zaruriyatga aylanadi. Umuminsoniy qadriyatlarning ustunligini anglash jahon hamjamiyati oldida ularning ruyobga chiqarilishini kafolatlovchi mexanizmni ishlab chiqish muammosini qoʻydi. Fikrimizcha, milliy qadriyatlarini umumjahon qadriyatlari darajasiga chiqarishda xalqaro faoliyatning davlatlar oʻzaro munosabatlari butun kompleksidan kelib chiqadigan eng muxim negizlariga tayanish kerak. Oʻz xavfsizligini boshqalar xavfsizligi hisobiga taʼminlashning, oʻz manfaatlarini boshqalar manfaatlariga ziyon etkazish hisobidan himoya qilishning mumkin emasligidan kelib chiqish kerak. Har bir xalqning tiklanish erkinligini tan olish yangi jahon tartibidagi asosiy jihatdir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning bir-biri bilan chambarchas bogʻlanib ketganini jamiyat xayotining barcha soxalarida amalga oshayotgan jarayonlarda yaqqol koʻrish mumkin. Ayni vaqda mamlakatimiz jahon hamjamiyati bilan yaqin munosabatlarni kuchaytirishga, eng dolzarb muammolarni birgalikda hal etishga katta eʼtibor qaratmoqda.

Mamlakatimizda jamiyat hayotining demokratiyalashtirishga, millatlararo totuvlikni taʼminlab berishga katta eʼtibor berilayotganligi jahon hamjamiyati tomonidan eʼtirof etib kelinmoqda.

2.2. O'zbekistonning umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishi va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi

Vatanimiz istiqloлга erishishi tufayli milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Zero, milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ular ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi, boshqa xalqlarnikiga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy shakl mazmunda mavjud bo'ladi. Mahalliy qadriyatlarning eng etuklari va milliy manfaatlarga, moslari asta-sekin saralanib, umummilliy darajaga ko'tariladi. Milliy muhit qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbaidir: u milliy qadriyatlarning eng yaxshilarini voyaga etkazib, jahon miqyosiga olib chiqadi.

Milliy qadriyatlar - milliy g'oyaning ma'naviy negizi. Milliy g'oya - millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o'zagidir. Turli xalqlarning milliy g'oyasi ularning maqsad-muddaolarini, orzu-umidi va ishonch-e'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarixdan ma'lumki, o'tkinchi manfaat va g'aliz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlarni taraqqiyotga eltgan.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

Milliy qadriyatlar quyidagilardan iborat:

1. Xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi.
2. Xalq ongida ustuvor bo'lgan fikr - do'st va yaxshi qo'shni bo'lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash.

3. Oila, mahalla, el - yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish.

4. Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat - e'tibor, butun jamiyatni hurmat qilish.

5. Millatning o'lmas ruhi, millat ma'naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat, uni sevisht.

6. Kattalarga - hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat, hurmat, degan e'tiqodga amal qilish.

7. Ayol zotiga ehtirom ya'ni, muhabbat, go'zallik va nafosat timsoli, abadiy hayot ramzi bo'lgan ayolni qadrlash.

8. Sabr-toqat, va mehnatsevarlik.

9. Halollik, mehr-oqibat va hokazo.

Bu tamoyil va qadriyatlar O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab - avaylashi, kelajak avlodlarga etkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdagi bobolarimiz qoldirgan meros, madaniy boyliklar, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o'rganish, ular zamiridagi bu tamoyilning asosiy jihatlaridir. Har bir millatning tili, qadriyatlari, urf-odatlar, an'analarini hurmat qilishni ta'minlash milliy istiqloq mafkurasining amal qilishida umuminsoniy andozalar namoyon bo'lishi uchun asoslar yaratadi. Demak, o'zbek xalqining milliy xususiyatlarida:

1. Oila - muqaddas tushuncha. Oila qurish - o'ta mas'uliyatli ish. «Oila - eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. Yoshlarni tarbiyalashda, kamolga etkazish, ilm-hunar berish, uyli-joyli qilish - aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir...

2. Mahalla - o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir. Mahalla - tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon.

3. Qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. «Yon qo'shnim - jon qo'shnim», «Xovli olma - qo'shni ol», «Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal» va h.k.

4. Keksalarga hurmat - inson hayotiy tajribasi davomida shakllangan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasl qoldirish, yagi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azish jon fido qilish hollari aksariyat hayvonlarda kuzatiladi. Ammo, qariyalarni e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehr-muruvvat ko'rsatish - insoniy fazilatdir. Bularsiz milliy g'oyamizni tasavvur eta olmaymiz. Bu borada mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasida 2015-yilni "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilinishi barcha jamoat tashkilotlari uchun ham keksalarni e'zozlashga yo'naltirilgan yangidan-yangi madaniy-ma'rifiy faoliyatni kun tartibiga dolzarb masala qilib qo'yadi. Zero, "Bugungi tinch va obod hayotimizni barpo etishga beqiyos xizmatlari singgan, xonadonlarimizning fayzi bo'lgan mo'tabar keksalarimizning farovon va munosib umr kechirishlari uchun keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimiz, deb qabul qilishimiz darkor."²⁹

5. Ayol zotiga ehtirom - insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadigan xotin-qizlarga bo'lgan munosabatning eng yuqori cho'qqisidir. Demokratiyaning eng muhim yutug'i - har ikki jinsning teng huquqli va erkin bo'lishini ta'minlashdir...

6. Onaga bo'lgan hurmat va sadoqat - eng oliy qadriyatdir. Shuning uchun Vatanga, milliy tilga nisbat berilganda ona nomi qo'shiladi. Milliy g'oya onalar uchun, jamiyatdagi barcha ayollar uchun farovon hayot, go'zal turmush yaratishni maqsad qilib, xotin-qizlarning erkinligi va o'z qadr-qimmatini anglab etishiga, o'z salohiyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga sharoit yaratishni bosh g'oyasida mujassamlashtirgan. Demak, milliy qadriyatlar insonning inson sifatida o'zini anglashi, o'z-o'zini himoya qila olishi, erishgan zafar yo'li va mag'lubiyatlari, sitamli damlarining yodnomalaridir.

Milliy an'analar - milliy qadriyatlarning bir bo'lagi bo'lib, u millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar,

²⁹ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir// Xalq so'zi, 2015-yil 11-aprel.

xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va islohotlarning avloddan - avlodga o'tish hamda meros bo'lib qolish tarzi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixi bilan bog'liq milliy bayramlar ham bor: Mustaqillik bayrami, Navro'z, Mehrjon, Boychechak, Gul sayli va boshqalarni nishonlash an'anaga aylanib bormoqda.

Milliy ma'naviy qadriyatlarni boyitishda milliy g'oyaning ahamiyati katta. Milliy g'oya ma'naviyatga tayanishi, undan hayot va ozuqa olishi bilan birga, ma'naviy-ruhiy hayotga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi. Milliy g'oya qadriyatlarni yanada yuksaltirish, ularni odamlarning ongi va qalbiga singdirish, istiqlol va istiqbolga xizmat qilmaydigan jihatlarini bartaraf etish vazifalarini ham amalga oshiradi. Ma'naviy hayotdagi behisob hodisalarni, qadriyat va ne'matlarni xalq manfaatlari va e'tiqodi nuqtai nazaridan baholash - milliy g'oya mezonlari bilan o'lchanadi.

Milliy g'oya dastavval, har bir inson uchun eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar - ota-ona va farzandlar, aka-uka va opa-singil, qarindosh-urug'lar orasidagi aloqalarni yuksak ma'naviy qadriyatlar asosiga qurishni taqozo etadi. Betakror va buyuk qadriyat - mahallaning hurmati va e'tiborini, uning o'z-o'zini boshqarishdagi rolini oshirish ham milliy g'oyaning muhim vazifasidir.

Milliy g'oyaga sadoqat – yuksak vatanparvarlikda, mustaqillikni mustahkamlash va Vatan ravnaqini ta'minlashga shaxsiy hissa qo'shish istagida namoyon bo'ladi. Dunyodagi hamma xalqlarda ham mehmonnavvozlik miqyosi va me'yori mavjud, lekin u har bir xalqda turli xarakterga ega.

Marosimlar, urf-odat va an'analar har bir xalqning betakror boyligi, merosidir. Insonning hayoti, u tug'ilganidan boshlab, vafot etgunga qadar turli marosimlar doirasida o'tadi. Marosimchilik millatning o'ziga xosligi va tarixiy tajribasini saqlash va an'analarni kelajakka etkazish vositasidir.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ming yillar davomida shakllangan, tarix sinovlariga dosh berib necha-necha avlodlardan o'tib kelayotgan ma'naviy boylar ekanligi, shubhasiz. Lekin bu boylar o'z-o'zidan va osonlikcha qadriyatga aylanmaydi. Tom ma'nodagi qadriyat maqomini olish uchun bular odamlar va

ijtimoiy guruhlarning ichki dunyosi va turmush tarziga singishi, faoliyatini yo'lga solish va baholash mezoniga aylanishi kerak.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida O'zbekiston mustaqilligani tan olgan, ularning ko'plari bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgan. O'zbekiston ko'plab nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'lib, ularning ishlarida faol qatnashib kelmoqda. Ko'plab dolzarb muammolarni xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etib kelinayotganligi milliy qadriyatlarni alohida unsurlarini tashkil etuvchi milliy til, milliy davlatchilik, milliy g'oya, milliy mafkura, milliy urf-odatlar, milliy an'analarni tiklash bilan uyg'unlashtirgan holda kelajak sari qadam tashlayotganini ko'rsatadi.³⁰

Gullab-yashnaydigan, erkin va demokratik jamiyatga yolg'iz o'z yo'lini ijtimoiy rivojlanishning boshqa yo'llariga qarama-qarshi qo'ygan holda kelish mumkin emas. Birgalikda rivojlanish, birgalikda ijod qilish, hamkorlik davrning qat'iy talabidir. Qadimgi Yunoniston, ma'rifatparvarlik davri, yangi va eng yangi davr inqiloblari insonparvarligining barcha eng yaxshi tomonlarni o'zida mujassamlashtirgan umuminsoniy demokratiya ideallari sari harakatning zarurligini hal etish barakalidir. Amaliyotda bu hol inson huquqlari sohasida BMT xalqaro huquq hujjatlari, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, ko'plab xalqaro bitimlar, yangi Evropa uchun, Parij hartiyalarining universal negizida xalqaro hamkorlikning kengaytirilishini anglatadi. Ularni hurmat qilish, ularga amal qilish, qonun bilan kafolatlash, ximoya qilish, to'liq amalga oshirish- hukumatlar va davlatlarning eng birinchi burchi, shaxsning ruxiyati va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi hamda kishilarning ijtimoiy kuch-g'ayratini ozod etuvchi erkinlik, adolat va tinchlikning negizidir. Har qanday jamiyat xayotini demokratiyalash kuchaygan sari fuqarolarnikg siyosiy ongi, ularning faolligi oshib boradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganini iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda sodir bo'layotgan jarayonlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, ayni vaqtda bizning

³⁰ Лафасов М., Юсупов Ў., Номозова К. Миллий –маънавий тикланиш. Ўқув қўлланма. –Тошкент: 2008. – Б.185.

mamlakatimiz jahon iqtisodiyoti bilan o‘zaro yaqinlashish niyatida bozor munosabatlarini rivojlantirmoqda. Bunday yangi iqtisodiy siyosat ayni bir paytda ham bizning milliy talablarimizga, ham umuminsoniyat manfaatlariga javob beradi. Shuning uchun ham aksariyat rivojlangan xorijiy mamlakatlar bizga o‘z ko‘maklarini ko‘rsatmoqda. Bunga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan keyingi vaqtda bir necha xorijiy mamlakatlarga qilgan safari chog‘ida imzolangan ko‘pgina shartnomalar yaqqol misol bo‘la oladi.

Sobiq SSSR respublikalari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi keyingi vaqtda Evropa hamjamiyatida, Xalqaro valyuta fondida va boshqa iqtisodiy tashkilotlar ishida ham faol qatnashmoqdalar. O‘zbekiston xalqaro hukuknnng teng xukuqli sub’ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o‘zlarining qilayotgan ma’ruzalarida, asarlarida mustamlakachilik davridan qolgan illatlarga barham berish yo‘lida oldimizda qanday vazifalar turganligini ta’kidlab kelmoqdalar. Siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy qadriyatlarni tiklash, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, fuqarolar totuvligini ta’minlash, millati, dini va e’tiqodidan qa’tiy nazar har bir shaxsning erkinligiga va inson xuquqlariga kafolat beriladigan zamonaviy demokratik davlatlar qatoridan joy olishdir.

Bunday vazifalarni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni, turli millatlar manfaatlarini, mintaqada asrlar mobaynida tarkib topgan turmush tarzini hisobga olmoqda.

Shu bilan birga millatlararo munosabatlarni demokratik tamoyillar asosida hal etib katta yutuqlarga erishgan mamlakatlarni tajribalaridan, hamda milliy munosabatlarni tashkil etish yo‘l qo‘yilgan xatolardan xulosa chiqarilgan holda foydalanib ish olib borilmoqda.

Shuni e’tiborga olish lozimki qator xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan sobiq sovet davlati hududida hamda shu singari o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan boshqa ko‘plab davlatlarga moddiy va ma’naviy tomondan yordam ko‘rsatilishi ikkala tomon uchun ham foydalidir.

Chunki yangi davlatlar mustaqillikning ilk kunlaridanoq uchraydigan ma'lum bir qiyinchiliklarni bartaraf etish jarayonida turli xil muammolarga uchrashi mumkin. Jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlardagi xatoliklar va kamchiliklar, shu jumladan milliy siyosatni tashkil etishdagi xatolikliklar ziddiyatlarning kelib chiqishiga, ularning keskinlashib borishiga sababchi bo'lishi mumkin. Bunday kamchiliklar va xatolar uzoq vaqt qaramlikni o'z boshidan kechirgan, ko'p millatli davlatlar uchun ayniqsa xavflidir.

Bunday muammolarning o'ta ziyraklik, ehtiyotkorlik, barcha millatlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda hol etish ko'p millatli O'zbekiston uchun ham xosdir.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ajdod-larimizning boshqa millat vakillariga nisbatan mehr-muruvvatli va do'stona munosabatda bo'lish fazilatlarini davom ettirilishi yurtimizda tinchlik va barqarorlik bo'lishini ta'minlab bermoqda. Ajdodlarimizning bunday fazilatlari xaqida gapirib Prezidentimiz shunday deydilar "Qadimiy diyorumizda asrlar mobaynida turli madaniyat va sivilizatsiyalar yonma-yon yashab kelgan, bu esa bag'rikenglik, tinchlikparvarlik, sahovat va mehr-oqibatlilik fazilatlari bilan ajralib turadigan xalqamizning o'ziga xos mintaliteti shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi".

Millatlararo munosabatlarni taraqqiy ettirish, tinchlik va barqarorlikni ta'minlab berish yo'lida chet el davlatlari berayotgan ko'magi, O'zbekiston rahbariyatini bu borada olib borayotgan siyosatining ular tomonidan ko'llab quvvatlanishi mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Bundan ham biz hozirgi paytda milliy va umuminsoniy manfaatlarning bir-biri bilan uzviy boglanib ketganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Xalqlar xayotida ro'y berayotgan iqtisodiy va siyosiy o'zaro yaqinlashish madaniyat sohasiga ham to'la taalluqlidir. Shu asosda har bir milliy madaniyat boshqa xalqlarning madaniyatiga ta'sir etib, ularni boyitib, ayni paytda uning

o‘zi ham boyib boradi. Milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri asosida rivojlanib, takomillashib borishi umuminsoniyat madaniyati taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi jahon xalqlarining fan, texnika, adabiyot va san’at sohasida erishilgan ilg‘or tajribalaridan atroflicha foydalanishni xayotiy ehtiyojga aylantirdi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy hayotda milliylik bilan baynalminallikni joriy etish va rivojlantirishda ana shunga e’tibor qilish ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda mavjud bo‘lgan har bir milliy madaniyatdagi yutuqlar, ijobiy, foydali tomonlarni doimiy ravishda o‘rganish, ulardan keng va atroflicha foydalanish milliy madaniyatlarni o‘zaro boyitishning, kishilarni baynalminal ruhda tarbiyalashning zaruriy yo‘llaridan xisoblanadi. Har qanday milliy madaniyat jamiyat ma’naviy hayotining barcha rang-barang tomonlarini va boyliklarini o‘zida aks ettiradi va shu tarika yanada rivojlanadi, boyib boradi. Milliy madaniyat umuminsoniy madaniyatdan ajralmasdir, uning bir bulagidir. Shuning uchun ham har bir xalqning milliy madaniyatini umuminsoniyat madaniyatiga qarama-qarshi qilib qo‘ymasdan, ularni o‘zaro bog‘liqlikda, olib karash maqsadga muvofiqdir.

Birgina o‘zbek milliy madaniy merosining necha asrlar davomida umum-jahon madaniy merosi darajasiga ko‘tarilib, gullab-yashnab kelganligini, uning umumbashariy madaniyat mushtarakligiga aylanib ketganligini jahon jamoatchiligining o‘zigina aytib turibdi, buni butun jahon tan olmoqda va e’zozlamoqda³¹.

Buning yorqin misoli sifatida jahon ilm fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan buyuk allomalarimizni tavullud kunlarini, Buxoro, Xiva shaharlari-ning 2500 yilligi, “Avesto” yozilganligini 2700 yilligini va shu singari tarixiy sanalarni jahon progressiv jamoatchiligi tomonidan YUNESKO rahnamoligi

³¹ Лафасов М., Юсупов Ў., Номозова К. Миллий –маънавий тикланиш. Ўқув қўлланма. –Тошкент: 2008. – Б.185.

ostida nishonlanishidir. Bu o'zbek va boshqa tarixiy xalqlarning bebaho madaniy qadriyatlariga chukur va cheksiz hurmat nishonasidir.

Afsuski, oxirgi yillarda bizning madaniyatimiz tabiiy mintaqa doirasidan sun'iy ravishda uzib olindi. Natijada Evropa mintakasi madaniyati an'analarini jahon madaniyati, deb o'z mintaqamiz madaniyati an'alarining qadriga etmadik, nari borganda, maxalliy-milliy chegaralardagi madaniyat unsurlari, deb qarashga odatlandik. Milliy madaniyatni jahon madaniyati darajasiga ko'tarib, uning ajralmas qismiga aylantirishni noto'g'ri tushundik. Endiga o'z mintaqa madaniyatimizni chuqur o'zlashtirib va mustaqil zaminda rivojlantiribgina asl ma'noda jahon madaniyatiga esh bo'la boshlashimiz mumkinligini tushunmoq payti keldi. Bu bir mintaqa madaniyatini boshqasiga qarshi qo'yish yoki biri chegarasida ikkinchisini ijodiy o'zlashtirishdan tiyilish ma'nosida tushunilishi kerak emas, albatta.

O'zbek xalqining madaniyati jahon madaniyatidan chetda yuzaga kelgan va rivojlangan emas. O'zbek xalqining madaniyati faqat milliy asosda emas, shu bilan birga umuminsoniy madaniyatlar ta'siri ostida ham o'sadi, rivojlanadi. Xitoy, Qadimgi dunyo, Rim davri madaniyati, jahondagi boshqa madaniyatlar o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z navbatida o'zbek xalqi ham boshqa xalqlar madaniyatining yuksalishiga, umumjahon madaniyatiga, taraqqiyotiga o'zining faol ta'sirini ko'rsatdi. O'rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, Alisher Navoiy va boshqa allomalar tomonidan yaratilgan nodir asarlarning insoniyat ma'naviy xazinasining durdonasi, jahon madaniyatining ajralmas qismi ekanligi bunga misol bo'ladi. Shuning bilan bir qatorda o'zbek milliy madaniyati boshqa xalqlarning madaniyati ta'siri ostida rivojlanib boradi. Buni biz milliy san'at va milliy adabiyot sohalarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki turli mintaqa xalqlari madaniyatining ta'siri ostida O'zbekistonda madaniyatni yangi shakllari paydo bo'ldi va ular mintaqamiz madaniyatini yanada boyishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ham ular xalqimiz madaniyatini dunyoga tanitishda o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Yuqorida aytilganlardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Shuning uchun ularni bir-biridan ajratib ham, birini ikkinchisiga qarma-qarshi qilib ham qo‘yish mumkin emas. Umumiylik narsa va hodisalarning eng umumiy tomonlari orasidagi aloqalarni o‘zida aks ettirib, o‘z ko‘rinishini faqat alohidaliklar orqali konkretlashtiradi. Umumiy faqat alohida orqali yashaydi. Har qanday alohida (u yoki bu tarzda) umumiydir. Har qanday umumiy alohidaning bir qismi yoki bir tomoni yoki mohiyatidir. Bizni qurshab olgan dunyo, tabiat va jamiyat umumiylik va xususiylikning o‘zaro ta’siri natijasida bir vaqtda umumiy va uzluksiz jarayon tarzida namoyon bo‘ladi. Demak, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ham bir-biri bilan uzviy bog‘liq bulib, bir-birini to‘ldirib, bir-birini aks ettirib turadi.

Umuman, milliy ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy hayotning va ma’naviy borlig‘imizning muhim va serqirra sohasi bo‘lib, inson va jamiyat kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar muttasil rivojlanib, takomillashib boradi.

Xulosa

Milliy-ma'naviy tiklanish o'zining mazmuni va olijanob maqsadlari bilan inqilobiy mohiyatga ega bo'lgan tarixiy voqeadir. Uni har tomonlama tasvirlab, tavsiflab, mohiyatini fuqarolar qalbiga quyish lozim.

Bitiruv malakaviy ishimizda milliy-ma'naviy tiklanish va mustaqillikni mustahkamlanishining mazkur asosiy maqsadlari, uning siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy poydevorini tiklash yo'llari, milliy mafkura va uni hayotga tatbiq etish millatlararo munosabatlarni yanada yaxshilash masalalari ustida so'z yuritishga xarakat qildik.

Yosh avlodning ma'naviy kamol topishida, milliy qadriyatlar va an'analarimiz asosida tarbiyalashda Sharq falsafasi va islom ta'limotidan unumli foydalanmoqda. Islom falsafasining eng afzallik tomonlaridan biri shundaki, uning g'oyalari insonning ichki dunyosi, ma'naviyatini shakllantirishga qaratilgan. Shuning uchun ham u kishilarning qalbida chuqur ildiz otib ketgan.

Mustaqillik xalqimizning ma'naviy yuksalishiga katta yo'l ochib berdi. O'z navbatida ma'naviyat mustaqil davlatimiz poydevorini mustahkamlashga faol ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Milliy g'oya butun O'zbekiston xalqining milliy ruhini, his-tuyg'usini, milliy g'urur va iftixorini, kuch-qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan buyuk kuchdir. Uni mukammal egallab olib, Prezidentimiz atrofida jipslashib, jonajon Respublikamizni kelajagi buyuk davlatlar safiga chiqarish uchun astoydil mehnat qilish mamlakatimizda istiqomat qiluvchi har bir kishining sharaflı burchidir. Vatanimiz baxt saodati, xalqimiz, millatimiz kelajagi, istiqbolimiz taqdiri barchamiz uchun muqaddasdir.

«Islohatlarning muvaffaqiyati, - deydi I.Karimov, - har birimizning qo'limizda, O'zbekistonda yashovchi barcha aholining qo'lidadir. Mamlakatimiz erkin, boy va ravnaq topayotgan mamlakat bo'lsin desak, farzandlarimiz baxtiyor va to'kin-sochin yashasin desak, islohatlar ikkinchi bosqichidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun butun kuch-g'ayratimizni sarflamog'imiz

darkor. Bu bosqich mamlakatimizning jadal rivojlanishi, uning qudrati hamda jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tiborini kuchaytirish uchun mustahkam zamin yaratishga qaratilgandir. Ushbu maqsadlarga erishish bizning muqaddas burchimiz, kelajak avlodlar oldidagi ezgu majburiyatimizdir».

Millatlararo totuvlik hamjihatlik, o‘zaro hurmat-umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli millat vakillari istiqomat qilib kelayotgan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilab berishda katta ahamiyatga ega, qolaversa shu mintaqa, davlatlar hududida tinchlik, barqarorlik, farovonlikni kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi bo‘lgan Ozod va Obod Vatanning yaratishda, jamiyatimiz hayotini yanada erkinlashtirish va farovonlashtirishda uning asosiy g‘oyalaridan bo‘lgan millatlararo totuvlikning o‘z o‘rni bordir.

Bu g‘oya ko‘p millatli har bir jamiyatda yashab olijanob yagona maqsadlar yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat ishonch, do‘stlik va hamjihatlikning ma‘naviy asosidir.

Millatlararo totuvlik tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa omillarga suyangan holda turli xil milliy mentalitetlarga, xilma-xil diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarni bir zamin, bir Vatanda yaxshi niyatlar, ezgu maqsadlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi.

Sog‘lom milliylik rivojlanib, barq urib borayotgan joyda umumbashariy fazilatlarining qadriga etishi xam ortadi, millatlararo o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar ham kamol topadi.

Mustaqillikning ilk kunlaidanoq respublikaning I.A.Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyati O‘zbekistoondagi ahvolni barqarorlashtirishga, milliy qadriyatlarni tiklashga, barcha millatlar manfaatlarini himoya etishga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradi.

Millatlararo totuvlikni milliy manfaatlarsiz, milliy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ular o‘rtasidagi aloqadorlik shunday xususiyatlarga asaslanganki, kimki o‘z xalqi milliy manfaatlarini boshqa millat manfaatlariga teskari qo‘ymagan bo‘lsa, aksincha ularni chuqur his qilish darajasiga o‘sib chiqsa, o‘z milliy manfaatlarini bemalol va beminnat namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ana

shunda turli millatlarning manfaatlarini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o'sib boraveradi.

Prezidentimiz olib borayotgan insonparvar qalbidagi chuqur o'rin egallabgina qolmay, jahon xalqlari, davlat va mamlakatlarning ham diqqat-markazida ekanligi bizda yuksak quvonch va iftixor tuyg'ularini uyg'otadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarimizdan kelib chiqqan xolda quyidagi taklif-mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz:

- Xalqimizning ming yillar davomida sayqallangan milliy ma'naviy - qadriyatlari, urf – odatlari, an'analarini chuqur va har tomonlama o'rganish;
- Milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni targ'ib qilish, asrab avaylash va rivojlantirishga e'tiborni yanada kuchaytirish;
- Milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni tarannum etadigan turli badiiy va videofilmlarni yaratishni yanada rivojlantirish;
- Ommaviy axborot vositalari orqali milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni targ'ibotini yanada rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

I. Rahbariy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 32 б.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
5. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 410 б.
6. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ этиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 36 б.
7. Каримов И.А. Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11- жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
8. Каримов И.А. Тинчлик ва ҳавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. 12-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004. – 400 б.
9. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизатсия ва ислоҳ этишдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 48 б.
10. Каримов И.А. Ёшларимиз-халқимизнинг ишончи ва таянчи. - Тошкент: Маънавият, 2006, – 68 б.
11. Каримов И.А. Мамлакатни модернизатсия қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. 16-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.- 368 б.
12. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
13. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш контсептсияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 58 б.

14. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo`lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir // Xalq so`zi, 2010 yil, 7 dekabr.
15. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O`zbekiston, 2011. – 440 b.
16. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta`minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo`lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir // Xalq so`zi, 2012 yil, 8 dekabr.
17. Karimov I.A. Tarixiy hotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir – Toshkent: O`zbekiston, 2012. – 76 b.
18. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko`taradigan yil bo`ladi // Xalq so`zi, 2013 yil 20 yanvar.
19. Karimov I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro- e'tiborini yanada oshirish yo`lida mehnat qilish – muqaddas burchimiz. Prezident Islom Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyadagi nutqi // O`zbekiston ovozi, 2013 yil 4 aprel.
20. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik – barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Prezident Islom Karimovning 9 – may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbat // Xalq so`zi, 2013 yil 10 may.
21. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo`lib yashash-bugungi hayotning o`tkir talabi. Prezident I.A. Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar // O`zbekiston ovozi, 2013 yil 15 may.
22. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chusurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug` kelajagimizning asosiy omilidir // Xalq so`zi, 2013 yil 7 dekabr.
23. Karimov I.A. Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22-yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so`zi, 2014 yil 6 dekabr

24. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2014 yil 6 dekabr
25. Karimov I.A. Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining birinchi majlisidagi nutqi // Xalq so'zi, 2015 yil 23 yanvar.
26. Karimov I.A. Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi // Xalq so'zi, 2015 yil 24 yanvar
27. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish - ustuvor vazifamizdir // Xalq so'zi, 2015 yil, 26 yanvar.
28. Karimov I.A. Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Xotin-qizlariga bayram tabrigi // Xalq so'zi, 2015 yil 7 mart.
29. Karimov I.A. O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash – bizning farzandlik burchimizdir // Xalq so'zi, 2015-yil 10-may.
30. Karimov I.A. Xalqimiz bunyodkorlik salohiyatining yorqin namoyishi // Xalq so'zi, 2015-yil, 12-may.

II. Me'zoriy-huquqiy manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 38 b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent: Sharq, 1997. – 48 b.
3. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 48 b.
4. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. - Toshkent: O'zbekiston, 2004. – 248 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustda qabul qilingan «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori // Xalq so'zi, 2006 yil 26 avgust.
6. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari tug'risidagi Qonun. (1991 yil 20 noyabr', 2004 yilda kiritilgan o'zgartirishlar

kiritilgan) <http://www.lex.uz/>

7. “Jamoat tashkilotlari to`g`risida”gi Qonun (1991 yil 15 fevral’, so`nggi o`zgartirishlar 2004 yil 30 aprel’) // Xalq so`zi, 2004 yil 1 may.
8. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 30 maydagi “O`zbekiston yoshlarining “Kamolot” ijtimoiy harakati faoliyatini tashkil etishga ko`maklashish to`g`risida”gi 240-sonli Qarori // Xalq so`zi, 2001 yil 3 iyun.

III. Ilmiy, o`quv adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. –Toshkent: Sharq, 2000.-368 b.
2. Имомназаров М.С. Миллий маънавиятимизнинг такомил босқичлари. –Тошкент: 1996.
3. Туленов Ж. Хаёт фалсафаси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1993.
4. Туленов Ж., Гофуров З., Мустақиллик ва миллий тикланиш. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
5. Туленов Ж., Гофуров З., Миллатлараро ҳамжиҳатлик давлатимиз бойлиги. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
6. То`rayev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g`oya. –Toshkent: Manaviyat, 2008.
7. Ханазаров К. Ҳозирги замон ва мустақил Ўзбекистонда миллий муносабатлар. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
8. Қуръонов М. Ўзбек характери ва миллий ғоя. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
9. Рахмонов Р., Гофуров З., Мустақиллик ва миллий ўзликни англашнинг тикланиши. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
10. Mustaqil O`zbekiston tarixi. Uchinchi kitob. –Toshkent: Sharq, 2000.-560 b.
11. Otamurodov S., Xusanov S., Ramatov J., Ma'naviyat asoslari. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
12. O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi. IX tom. –Toshkent: 2005. -704 b.
13. Falsafa. Qomusiy lug`at. –Toshkent: Sharq, 2004 yil.
14. Xomidiy X. Tasavvuf allomalari. –Toshkent: Sharq, 2004.

15. Marifatli jamiyat muxoliflari. –Toshkent: Akademiya, 2005.
16. Mustakillik izohli ilmiy – ommabop lug‘at. –Toshkent: Sharq, 2006.
17. Lafasov M., Yusupov O‘., Nomozova K. Milliy –ma‘naviy tiklanish. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: 2008.
18. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.–Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
19. Мусурмонова О. Маънавий кадриятлар ва ёшлар тарбияси. –Тошкент: 1996.
20. Ортиқов Н. Маънавият: миллий ва умуминсоний кадриятлар. –Тошкент: 1997.
21. Исоқов Б. Жамият тараққиёти асоси. Наманган, 2007.

IV. Davriy nashrlar materiallari:

1. Abdullaev U. Millat etnik totuvlik va tolerantlik // Jamiyat va boshqaruv jurnali. 2005. №3. – 34 b.
2. Tillaeva G. Ijtimoiy himoya-dolzarb masala (Yoshlar tarbiyasi misolida) // Falsafa va huquq. 2007. – № 2 – B. 30.
3. G`ulomova D. Tarixiy xotira va yoshlar // Fidokor, 2001yil 18 oktyabr.

V. Internet materiallari:

1. [http: www.ziyonet.uz/news](http://www.ziyonet.uz/news)
2. [http: www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. <http://www.fikr.uz/news>